

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**ANDIJON DAVLAT UNIBERSITETI**  
**PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

# **Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**ANDIJON-2019**

O'quv uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016 yil 6-apreldagi "137"-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: O.Qodirova. – ADU. psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi  
B.Parmonov- ADU. psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

Taqrizchilar: M.Xalimova.- ADU. psixologiya kafedrası mudiri, dotsent  
G.Tojiboeva- ADU. psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

O'quv uslubiy majmua "Psixologiya" kafedrasining 2017 yil "28" avgustdagi "1" – son yig'ilshida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_p.f.n. dots. M.Xalimova.**

Fanning ishchi o'quv dasturi Andijon davlat universiteti ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti kengashining 2017 yil 25 avgustdagi 1 – son majlisida muhokama etildi va ma'qullandi.

**Fakultet kengashi raisi: \_\_\_\_\_ dots. O'. Ubaydullaev**

**Kelishildi: O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i: \_\_\_\_\_ dots R.Mullajonov**

## MUNDARIJA

|          |                                                                                                                                  |  |
|----------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
| <b>1</b> | O'quv materiallari:<br>1.1 Ma'ruzalar matni .<br>1.2. Seminar mashg'ulotlar ishlanmasi.<br>1.3. Amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi. |  |
| <b>2</b> | Mustaqil ta'lim materiallari                                                                                                     |  |
| <b>3</b> | Glossariy                                                                                                                        |  |
| <b>4</b> | Ilovalar:<br>- Fan dasturi<br>- Ishchi o'quv dasturi.<br>- Baxolash mezonlari<br>- Testlar.<br>- Qo'shimcha materiallar          |  |

## SO'Z BOSHI

Mamlakatimiz XX asrning oxiri va va XXI asrning boshlarida jamiyatning barcha sohalarida erishgan ulkan yutuqlari bilan dunyo haritasidan munosib o'rin egallab, barcha sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu islohotlarning maqsadi avvalo *inson omilini* har qachongidan ham yukori darajaga ko'tarish, uning kuchi, saviyasi, idroki, saloxiyati, ruxiy hamda ma'naviy barkamolligini ta'minlash, yuksak taraqqiyotga erishish orqali barcha sohalarda jahon hamjamiyatida yetakchi o'rinni egallashdan iboratdir.

Inson psixologiyasini bilishda, o'z imkoniyati, iqtidorini anglay olish, faoliyatini tashqil etish, har qanday yosh davrida ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni ob'ektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammolari ilgari suriladi.

Inson xulq-atvori, psixologik xususiyatlari bilan bog'liq masala insoniyatni qadim zamonlardan buyon qiziqtirib kelgan. Bu sohada izlanish olib borgan ko'plab olimlar insonning tug'ilganidan boshlab, shakllanishi bilan bog'liq barcha xodisalarni o'rganishni tadqiq qilish orqali, uning o'ta murakkab jihatlarini kashf etgan. Haqiqatdan ham, inson xulq-atvorining jamiyatda belgilangan hayotiy normal mezonlardan og'ishi, buzilishi bilan bog'liq muammoni psixologiya fani o'rganadi. Demak, psixologiyada deviant, ya'ni og'uvchi axloqning turli shakllari, anomal turlari, sabab va motivlari mavjud bo'lib, bu pedagoglar, psixologlar, psixoterapevt va boshqa inson ongi va tarbiyasi masalalari bilan shug'ullanuvchi soha mutaxassislari bilan birga, ichki ishlar idoralari kasbiy psixologiya sohasi hodimlarining ham tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

## 1.1.Ma'ruza matn

### 1.1.Hulqi og'ishganlik psixologiyasiga kirish.

#### Reja;

- 2.Hulqi og'ishganlik tushunchasi.
- 3.Psixik taraqqiyotda norma va patologiya tushunchasi.
- 4.Hulqi og'ishishning ko'rinishlari.
- 5.Hulqi og'ishishni aniqlash va tuzatish metodlari haqida tushuncha

**Tayanch so'z va iboralar** *Gomeostatik, Gedonik, Pragmatik, Antisotsial.*

Ma'lumki, kishining deviant axloqini jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga ziddligi va ruxiy jarayonlarining muvozanatsizligi, moslashuvchan emasligi ko'rinishida yoki uning shaxsiy axloqi ustidan axloqiy va estetik nazoratdan bo'yin tovlash ko'rinishidagi o'zini faollashtirish jarayonining buzilishida namoyon bo'luvchi aloxida qilmishlar yoki qilmishlar tizimi sifatida belgilash mumkin.

Normal va uyg'un axloq shakllarini ruxiyat bilan bog'liq uch darajada ifodalash mumkin:

ruxiy jarayonlarning muvozanati ko'rinishidagi mijoz xususiyatlari;

-moslashuvchanlik va o'zini faollashtirish ko'rinishidagi xos xususiyatlar;

- kishining ma'naviyati, mas'uliyati va vijdonliligi ko'rinishidagi shaxsiylik.

Og'uvchi xulq (deviant, lot. deviatio - og'ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umum e'tirof etilgan me'yorlardan farq qiladigan yoki u o'zi a'zosi bo'lgan jamiyat tomonidan qabul kilingan me'yorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me'yorlaridan og'ishida namoyon bo'ladigan axloqqa aytiladi.

Demak, deviant xulqli shaxs deb, birinchi navbatda, axloqiy jihatdan qarindosh-urug'lari va do'stlarining ko'nglini og'rita- digan va atrofdagilarning hayoti uchun xavf tug'diradigan shaxslarga (individlarga) aytiladi. Katta yoshdagi individ avval boshdanok ichki maqsadga intilish kuchiga ega bo'lib, shunga ko'ra, faolligining barcha ko'rinishlari yuzaga chiqadi. V.A.Petrovskiyning fikricha<sup>1</sup>, bu o'ziga xos muvofiqlik postulati (isbotsiz qabul kilinadigan qoida)da ifodalanadi. Bu o'rinda har qanday ruxiy jarayonlar va xulqiy xatti-harakatlarning boshlang'ich moslashuv yunalishi haqida so'z yuritilmokda. Muvofiqlik postulatlarini uch turga ajratiladi: gomeostatik, gedonik (huzur-halovatga intilish insonga xos hislat deb hisoblovchi axloqiy ta'limot), pragmatik.

**Gomeostatik** variantida muvofiqlik postulati muhit bilan o'zaro munosabatlardagi ziddiyatlarni bartaraf qilish, ruxiy zo'riqish darajasini pasaytirish, muvozanat o'rnatish shaklidagi talablar kabi namoyon bo'ladi.

**Gedonik** variantida kishining harakatlari ikki birlamchi affekt: qoniqish va azob

---

<sup>1</sup> Қаранг: Петровский В.А.Идея свободной причинности в психологии. <http://www.psychology.ru>

orqali aniqlanadi; axloqning namoyon bo'lishi esa qoniqishni maksimalashtirish va azobni kamaytirish sifatida izohlanadi.

**Pragmatik** variant maqbullashtirish tamoyilidan foydalanadi, bunda diqqat markaziga axloqning tor amaliy jihati: foyda, naf yoki muvaffaqiyat qo'yiladi.

Demak, kishining voqelik (borliq) bilan o'zaro aloqalarining tahlili deviant axloqni baholashning asosi bo'lib xizmat qiladi, zero me'yorning xukmron tamoyili shaxsning nimagadir yoki kimgadir (ya'ni real borliqqa) moslashuvidan kelib chiqadi.

SHaxs va borliqning o'zaro munosabatlarini beshta usul bilan aniqlash mumkin:

- 1) moslashuv;
- 2) qarshilik ko'rsatish;
- 3) ro'para bo'lish;
- 4) vaziyatdan qochish;
- 5) mensimaslik.

Etuk intellektual salohiyatli shaxslar voqelikka moslashuvni tanlaydi. Qarshilik ko'rsatishda shaxs faol ravishda o'ziga, dunyoqarashiga mos kelmaydigan borliqni o'zgartirishga, ya'ni uni o'zining shaxsiy qarashlari va qadriyatlariga muvofiq o'zgartirishga harakat qiladi. U o'zi duch kelayotgan barcha muammolar borliqning ijtimoiy me'yorlariga asoslanganligiga ishonadi va borliq bilan kurash, borliqni o'ziga moslashtirib o'zgartirishga harakat qilish yoki jamiyat me'yorlarini buzuvchi axloqdan maksimal darajada foydalanish uning uz maqsadlariga erishishining yagona usuli bo'lib koladi. Bunda mazkur shaxsga nisbatan borliq tomonidan kaytariladigan javob ham xuddi shunday qarshi harakat qilish, shaxsni o'zgartirish, uni voqelik talablariga moslashtirishga qaratilgan bo'ladi. Borliqning shaxsning dunyoqarashiga zid bo'lgan ijtimoiy me'yorlariga qarshilik ko'rsatishi kriminal va delinkvent xulq-atvorda uchraydi. Borliqning qarshilik ko'rsatishi, uni o'zlashtirish va tushunishning sub'ektiv ravishda buzib ko'rsatilishi sabablari, tevarak-olam tomonidan dushmanlarcha qabul qilindigan ruxiy nuqson alomatlari va ruxiy-patologik buzilishlar bilan bog'liq. Ruxiy kasallik alomatlari atrofdagilarning qilmishlari sabablarini bir xil baholash imkoniyatini izdan chiqaradi, buning oqibatida muhit bilan o'zaro samarali munosabatlar qiyinlashadi. Borliqni negativ va oppozitsion baholaydigan kishilar borliq bilan o'zaro munosabatda o'zini unga moslashishga layoqatsiz deb hisoblab, ongli yoki ongsiz ravishda tanlaydilar. Ular shuningdek, nomukammalligi, konservativligi, bir qolibdaligi, ekzistentsial qadriyatlarni ezib tashlashi yoki ochikchasiga insonparvarlikka qarshi faoliyat olib borishi sababli, moslashishga «loyik bulmagan» borliqqa moslashishni istamaslikni nazarda tutishlari ham mumkin. Borliqni mensimaslik, shaxs o'zining shaxsiy tor dunyosida mavjud bo'lgan holda, borliqning talablari va me'yorlarini hisobga olmaganda, uning hayoti va faoliyatining avtonomizatsiyalashuvida (mustaqilligida) namoyon bo'ladi. Bunda na to'qnashuvlar, na qarshi harakatlar va

na voqelikdan chikib ketish holati sodir bo'ladi. X,ar kim uzicha (mavjud bo'lib) yashaydi. Demak, bunday holatda deviant axloqni jamiyatga zid va ijtimoiy harakterdagi ko'rinishlarga taxdidi va jamoat uchun xavfliligining namoyon bulish darajasi bo'yicha farqlash mumkin. Jamiyatga zid (antisotsial) bo'lgan og'ishlarga odamlar orasi- dagi shaxsning g'arazli, g'arazli-zo'ravon, tajovuzkor-zo'ravonlik karashlari yoki jinoiy axloqning boshqa turlariga xos bo'lgan kriminal shakldagi jamiyatda qabul kilingan o'zaro munosabatlar qoidalarini ongli (kamdan-kam hollarda ongsiz) ravishda buzishga qaratilgan qilmishi va harakatlarini kiritamiz. G'arazli yunalish deganda, noqonuniy yo'l bilan moddiy manfaat, pul yoki mulkiy manfaat olish maqsadida moddiy boyliklarni taksimlashga tajovuz qiluvchi huquqbuzarlik va qilmishlarni tushunish lozim.

### **1.2 Hulqi og'ishishning ko'rinishlari.**

Kishining voqelik (borliq) bilan o'zaro aloqalarining tahlili deviant axloqni baholashning asosi bo'lib xizmat qiladi, zero me'yorning xukmron tamoyili shaxsning nimagadir yoki kimgadir (ya'ni real borliqqa) moslashuvidan kelib chiqadi.

SHaxs va borliqning o'zaro munosabatlarini beshta usul bilan aniqlash mumkin:

- moslashuv;
- qarshilik ko'rsatish;
- ro'para bo'lish;
- vaziyatdan qochish;
- mensimaslik.

Etuk intellektual salohiyatli shaxslar voqelikka moslashuvni tanlaydi. Qarshilik ko'rsatishda shaxs faol ravishda o'ziga, dunyoqarashiga mos kelmaydigan borliqni o'zgartirishga, ya'ni uni o'zining shaxsiy qarashlari va qadriyatlariga muvofiq o'zgartirishga harakat qiladi. U o'zi duch kelayotgan barcha muammolar borliqning ijtimoiy me'yorlariga asoslanganligiga ishonadi va borliq bilan kurash, borliqni o'ziga moslashtirib o'zgartirishga harakat qilish yoki jamiyat me'yorlarini buzuvchi axloqdan maksimal darajada foydalanish uning uz maqsadlariga erishishining yagona usuli bo'lib koladi. Bunda mazkur shaxsga nisbatan borliq tomonidan kaytariladigan javob ham xuddi shunday qarshi harakat qilish, shaxsni o'zgartirish, uni voqelik talablariga moslashtirishga qaratilgan bo'ladi. Borliqning shaxsning dunyoqarashiga zid bo'lgan ijtimoiy me'yorlariga qarshilik ko'rsatishi kriminal va delinkvent xulq-atvorda uchraydi. Borliqning qarshilik ko'rsatishi, uni o'zlashtirish va tushunishning sub'ektiv ravishda buzib ko'rsatilishi sabablari, tevarak-olam tomonidan dushmanlarcha qabul qilindigan ruxiy nuqson alomatlari va ruxiy-patologik buzilishlar bilan bog'liq. Ruxiy kasallik alomatlari atrofdagilarning qilmishlari sabablarini bir xil baholash imkoniyatini izdan chiqaradi, buning oqibatida muhit bilan o'zaro samarali munosabatlar qiyinlashadi. Borliqni negativ va oppozitsion baholaydigan kishilar borliq bilan o'zaro munosabatda o'zini unga moslashishga layoqatsiz deb hisoblab, ongli yoki ongsiz ravishda tanlaydilar. Ular shuningdek,

nomukammalligi, konservativligi, bir qolibdaligi, ekzistentsial qadriyatlarni ezib tashlashi yoki ochikchasiga insonparvarlikka qarshi faoliyat olib borishi sababli, moslashishga «loyik bulmagan» borliqqa moslashishni istamaslikni nazarda tutishlari ham mumkin. Borliqni mensimaslik, shaxs o'zining shaxsiy tor dunyosida mavjud bo'lgan holda, borliqning talablari va me'yorlarini hisobga olmaganda, uning hayoti va faoliyatining avtonomizatsiyalashuvida (mustaqilligida) namoyon bo'ladi. Bunda na to'qnashuvlar, na qarshi harakatlar va na voqelikdan chikib ketish holati sodir bo'ladi. X,ar kim uzicha (mavjud bo'lib) yashaydi. Demak, bunday holatda deviant axloqni jamiyatga zid va ijtimoiy harakterdagi ko'rinishlarga taxdidi va jamoat uchun xavfliligining namoyon bulish darajasi bo'yicha farqlash mumkin/Jamiyatga zid (antisotsial) bo'lgan og'ishlarga odamlar orasi- dagi shaxsning g'arazli, g'arazli-zo'ravon, tajovuzkor-zo'ravonlik karashlari yoki jinoiy axloqning boshqa turlariga xos bo'lgan kriminal shakldagi jamiyatda qabul kilingan o'zaro munosabatlar qoidalarini ongli (kamdan-kam hollarda ongsiz) ravishda buzishga qaratilgan qilmishi va harakatlarini kiritamiz. G'arazli yunalish deganda, noqonuniy yo'l bilan moddiy manfaat, pul yoki mulkiy manfaat olish maqsadida moddiy boyliklarni taksimlashga tajovuz qiluvchi huquqbuzarlik va qilmishlarni tushunish lozim.

## **2-Mavzu. O'smir psixik taraqqiyotidagi patologik o'zgarishlar.**

### **2.1 O'smirlar xulqi og'ishganligini analiz qilishda mediko-psixiatrik va ijtimoiy psixologik yondashish.**

#### **Reja;**

1.O'smirlar xulqi og'ishganligini analiz qilishda mediko-psixiatrik va ijtimoiy psixologik yondashish.

2.Xulqi og'ishganlikning mediko-biologik, psixologik, oilaviy tarbiya va maktab ta'limi bilan bog'liq sabablari.

**Tayanch so'z va iboralar;** *Dezadaptiv, Delinkvent axloq, Delinkvent shaxs, Psixosotsial, Deviant axloq.*

O'smirning deviant axloqini diagnostika qilish uchun psixologlar tomonidan «qarshi harakat» deb nomlanuvchi mezonlar ishlab chikilgan. Bunday holda, ular ijtimoiy, o'quv yoki shaxslararo sohadagi buzilishlar bilan bog'liq eksternal deviatsiyani (nafrat, dushmanlik, tajovuz, o'g'rilik, yolg'on) o'z ichiga oladi.

O'smirdagi deviant axloqning muomala belgilari (DSM - IY bo'yicha)

- xis- xayajonli portlashlar;
- kattalar bilan janjallar;
- kattalarning qoidalari yoki iltimoslarini mensimaslik yoki bajarishni rad etish;
- boshqa odamlarni jurttaga bezor qilish;
- o'z xatolarida boshqa birovlarini ayblash;
- jizzakilikning eng keskin darajasi;
- badjaxllik, darg'azablik, kasoskorlik, kek saqlash;

Shaxsni ijtimoiylashtirish umumiy jarayonining bir qismi uni huquqiy ijtimoiylashtirish bo'lib, uning mohiyati shaxs tomonidan huquqiy qadriyatlarning uzlashtirilishi, ularni o'z hayoti va axloqining me'yorlariga, shaxsiy sifatlariga aylan- tirishidan iborat.

O'z huquqini tanish - yuridik ahamiyatga ega bo'lgan vaziyatlarda inson axloqini tartibga soluvchi yuridik bilimlar, huquq va uni qo'llash amaliyotiga bo'lgan baholovchi munosabatlar, huquqiy yo'l-yuriklar va kimmatli yunalishlar shaklidagi huquqiy borliqni aks ettiruvchi jamiyat, gurux va individual ong doirasidir.

Huquqiy axloqning har qanday harakatida albatta, unda ishtirok etayotgan shaxsning huquqiy ongi namoyon bo'ladi. Buning aniq bir huquq me'yorini bilishi yoki bilmasligi, davlat xokimiyati, qonun, huquqni muxofaza qiluvchi organlar nufuzi- ning turli darajasi, amaldagi huquqiy takiklar va ularni buzganlik uchun huquqiy sanksiyalarning mavjudligi va unga nisbatan shaxsning salbiy munosabati bilan tavsiflanishi mumkin.

Og'uvchi axloqqa ega bo'lgan kishilarning katta kismi umumin- soniy qadriyatlar va axloq me'yorlari haqida tasavvurlarni eslab koladi, lekin bir qator sabablarga ko'ra uz xulqidagi bu me'yorlarga tayana olmaydi yoki turli motivatsiyalangan himoya mexanizmlari bilan o'zining jamoatchilikka zid og'ishlarini oklashga harakat qiladi. Ruxiy himoya mexanizmlari - sub'ekt uchun og'riqli, chidab bulmaydigan tashvishlarga qarshi himoya usuli bo'lib, uning borliqni, «Men» (obraz)ini yoki tashqi dunyoni buzib ko'rsatish kabilarning natijasidir.

SHunday qilib, og'uvchi axloq o'zini namoyon qilishning keng shakllariga ega. Deviant axloq namoyon bo'lishi xususiyatlarining differentsiatsiyasini utkazish uchun zamonaviy psixologiyaning kuyidagi qoidalariga tayanish zarur.

1. Garchi psixopatologik buzilishlar mavjud bo'lgan barcha sub'ektlarning axloqi deviant deb hisoblansada, deviant axloqning har qanday turi orqasida ham psixopatologiya yashirinib yotavermaydi.

2. Ruxiyat buzilishlari, ya'ni kognitiv, xis-xayajonli va boshqaruvchi jarayon, jarayonlar borishidagi buzilishlar albatta, shaxsning nuqsonini belgilab bermaydi.

3. Buzilishlarning bir qancha ko'rinishlari shakllanishida organiq omillarning roli dezadaptiv ta'sirlanishlarga o'rganish imkoniyatini inkor etmaydi.

Bu holda, dezadaptatsiyaning turli shakllarini ko'rib chiqilayotgan holatning darajasi o'z karakterlovchi belgilari bo'yicha yaqin bo'lgan ma'lum guruxlar ko'rinishida tasavvur etamiz.

Birinchi guruxni shaxsning delinkvent axloqi (lot. delinquens - jinoiy xulq, qilmish) vakillari guruxi tashqil etadi. Unga yukorida qayd etib utilgan toifadagi jinoyatchilar, shuningdek foxishalar va ma'lum yashash joyiga ega bulmagan daydilar ham kiradi.

**Delinkvent axloq** - ushbu jamiyatda va ayni vaqtda urna- tilgan huquqiy

me'yorlardan og'ishgan, jamoatchilik tartibiga xavf soluvchi muayyan shaxs harakati<sup>2</sup>.

**Delinkvent shaxs** - keskin og'uvchi axloqqa ega bo'lgan jinoiy jazoga mos harakatlarni namoyon qiluvchi sub'ekt.

Ikkinchi guruxga kishining o'zini uzi barbod qiluvchi, ya'ni axloqi va harakatlari orqali, ruxiyati yoki yaxlit organizmning yanada tezrok yoki sekinrok va tiklab bulmaydigan yemirilishiga olib keluvchi axloqi vakillari kiritilgan. **Bu - ichkilikbozlar, giyouvandlar, uz joniga tsasd tsiluvchilardir.**

Va nixoyat, uchinchi guruxni kishining me'yoriy bulmagan axloqi vakillari tashqil etgan bo'lib, uning tarkibiga turli ruxiyat buzilishlari bilan kasallangan kishilar kiradi O'smirni turmush sharoiti. (jismoniy va ruhiy kamchiliklari, yetimlik va hokazo) Ko'pchilik holatlarda o'smir o'z "shaxs" strukturasini boshqa muhitda topmoqchi bo'ladi. Atrofdagilarni nasihatlari uni battar jahlini chiqaradi, o'zlarini o'ta "bilimli" qilib ko'rsatib, e'tiborini jalb qiladi. O'zg'in, past bo'ylik o'g'il bolalar, rivojlanishida orqada qolgan bolalar, atrofdagilarga kichkina, moslashmagan bo'lib ko'rinadi. Va shu muhtojlikni sezgan holda, himoyada agressivlikni namoyon qiladi. Bunday hulq o'z-o'ziga ishonmaslik, atrofdagilarga shafqatsizlarcha muomala qilishga olib keladi. Bunday muammolar bolani rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. O'sib kelayotgan organizm tashqi tushunmovchiliklar bilan atrof muhitni har hil his etadi. Jinsiy organlarning yetarli darajada yetilmagani ham bolaning hulqiga ta'sir qiladi. Bu holatda bolalar sust va past, o'z fikrini jamlay olmaydigan, o'ziga ishonmaydigan bo'lib qoladilar. Bu davr o'g'il bolada 11-13 yoshda, qiz bolada 13-15 yoshda namoyon bo'ladi. Bu qaysarlikni ko'rsatadi. O'z o'zini yahshi ko'rish, yolg'izlikda his-tuyg'ularga berilish, tortinish va o'zini tanasiga iffat bilan qarashlik namoyon bo'ladi. Boshqalarda esa hulqning buzilishi, vahima, havotir, qo'rqish bilan kechadi.

Bularni hammasiga tarbiyaning ijtimoiy yetishmovchiligi sabab bo'ladi. Ota-onani, tarbiyachini bolaga bo'lgan ta'siri, o'smirda o'z oldiga qo'ygan to'g'ri harakatlarda o'z javobini topadi.

- ba'zida bu yahshi harakatlar
- ba'zida esa o'smir keyingi jazodan qo'rqib, qochadi, unga muammo tug'dirib, ota-onani va o'qituvchilarni yanada ogoh bo'lishga majbur qiladi. Kattalar spirtlik ichimliklar ichish va sigareta chekish bilan o'smirda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu yoshda o'smir juda ta'sirchan bo'lib, qiziquvchanligi bilan, shu narsalarni ta'tib yoqtiradi va berilib ketadi.
- O'smir "men" yoki "men hohlamayman", "men shahsman", iboralardan yiroq bo'lishi kerak. O'smir atrofidan yaxshi namunalar olib, yomon illatlardan uzoq bo'lishi kerak. Ichkilikbozlik, nashavandlik oqibati nimaga olib kelishini bola o'zi his qilishi kerak.

- Jinsiy organlarini tez yetilishi, skeletni o'zgarishiga olib keladi. Bunda mushaklarni shakillanishi kechiktirilib, yurish qobiliyati qo'pollashadi. Atrofdagilar kinoya yoki shama qilib qaraydilar.
- Etuk o'g'il bolalar esa jasorat kuchiga ishonch bilan qaraydilar. Ularga atrofdagilarni hurmati uchun kurashmasa ham bo'ladi. O'ziga ishonch bilan qaraydi. Jinsiy organlarini yetilishi hulqqa ham ta'sir qiladi. Tez yetilishi, ba'zi hollarda his-tuyhularini o'zgarib turishi yuzga (betga) choparlighi va boshqa harakatlar bilan bog'liq. Jinsiy organlarni susayishi esa o'z-o'ziga ishonmaslik, beparvolikni olib keladi.

Destruktiv hulqning paydo bo'lishi psixologik xususiyatlar bilan bog'liq. Bu davrda bolalar qaysar bo'ladi. Katta o'smirlar hayotda mustaqil bo'lib, o'z o'rnini topmoqchi bo'ladi. Ular romantik bo'lib, tortinish nimaligini bilmaydilar va yolg'izlikni yoqtiradilar. SHahsning rivojlanishi jamiyat va madaniyat ta'sirida kechadi. Jinsiy yetilish hammada har hir kechadi. Ba'zilar o'smir bu davrni og'ir kechib, juda ta'sirchan bo'lib qoladi. Masalan o'smir sportchilar orasida obro'yli bo'lib, qarama-qarshi jins bilan aloqa qilishda mutloqo tayyor bo'lmasligi mumkin.

Ba'zida hulqning buzilishi oila bilan chegaralanadi. Bu yerda ota-ona va qarindoshlarning qo'pol muomilasi bilan namoyon bo'ladi. Uydan narsa o'g'irlanadi, uy yondiriladi va hokazolar. Ba'zida o'smirlarni yetarli darajada kattalar yoki tengdoshlar bilan muloqat qilmasligi ham shu holatlarga olib keladi.

Kattalarga nisbatan ishonchsizlik, tushunmovchilik, berahimlikni ko'ramiz. Har galgidek bola yoki o'smir yolg'iz. Bu yolg'izlik tartib buzarligha, shavqatsizligha, qo'pollikka olib keladi. Bunday holatlarda kattalar bilan munosabati yomon bo'lganligini ko'rsatadi.

Destruktiv xulq ko'rinishlaridan biri- delinkvent hulqdir. Ushbu xulq ko'rinishlari salbiy oqibatlar sarasiga quyidagilar kiritildi ()

- Bunga mayda hulq va huquqbuzarliklar kiradi. Ya'niy, kuchsiz va kichiklarni kamsitish, pul talab qilish, velosiped yoki mototsikllarini olib qochish, darslardan qochish va hokazolar.
- Sabablar yetarlicha tarbiyani yuqlighi.
- 30%-80%- to'liqsiz oilalar;
- 70%- harakterni jiddiy buzulishi;
- 66% - aktsentuantlar;
- 40% - kasallangan orasida;
- 3% - uydan qochish va daydilanish;
- 4% - qochishda lat yeganlar va kasalhonalarga jo'natilganlar
- Qochishlarning kelib chiqishi: yetarli nazora qilmaslikdan, oilaning o'ta talabchanligi, yaqinlarni yetarli e'tibor bermaganligidan, o'rtoqlar tamonidan shavqatsiz muomala qilganligidan va hokazolar.

O'smir fiziologik va psixologik jixatdan yetiladi, unda yangi xissietlar, xoxishlar, karashlar, xaetga yangicha yendashuv paydo buladi. U insonlarning

uzlari xakidagi fikrlariga kizikadi. SHu bilimlarning tuplanishi o'smirlarga uzining real oilasi va jamiyat bilan solishtirganda mukammal emasligi namoen buladigan xaelan ideal oila, jamiyat yaratadi Bu karshiliklarni yukotish uchun u ideal bilanamaldagi xakikatni unga tugri keladi deb tushungan nazariya va dunekarashni uzlashtiradi. Natijada unga amalda ideal yaratish uni nazariyada faraz kilishdan xam mushkul emasdek tuyuladi.

Umumlashtirish kobiliyatiga ega bulgan sari o'smir uzi xakidagi obrazni umumlashtirishga ya'ni uzi xakida maktab ukuvchisi sifatida, ugil yeki kiz, urtok va x.k. sifatidagi tasavvurini butun kilib yaratib, uzini kelajakdagi yulini belgilaydi. Agar u individualliklarini anglash vazifasini bajara olaetgan bulsa (psixosotsial identifikatsiyalash), unda o'smir uzining kimligini, rivojlanishning kaysi boskichida ekanligini va u nimaga intilishi kerakligi xakida tasavvur paydo buladi. O'smir uz shaxsi xususiyatlari va uz xatti-xarakatlari urtasida alokani urnatgan bulsa xam, uz xarakteri va xatti-xarakatlaridagi muxim xususiyatlarni nomuxim xususiyatlardan ajrata olmaydi.

Kichik o'smirlik yeshida bolaning o'z-o'zini baxolashi juda nomukim va karama-karshiliklarga boy buladi, shuning uchun «Men» obrazi butunligini yukotadi. Bir tarafdin o'smirlarda boshkalar tomonidan uzini tan olinishiga bulgan xoxish katta buladi, boshka tarafdin esa uzini gueki mustakil ekanligini kursatishga xarakat kiladilar. Yana bir tarafdin tan olingan avtoritetlar, kabul kilingan tartib va intizom xamda keng tarkalgan ideallarga karshi kurashadilar (negativizmning namoen bo'lishi), boshka tarafdin uzining tan olgan insonlarini Xudo darajasiga ko'taradilar.

### **III-Mavzu. Xulqi og'ishganlikning psixogigienasi va psixoprofilaktikasi.**

#### **3.1 Bola tarbiyasiga nazariy yondoshish. Tarbiya usullari.**

##### **Reja:**

1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha.
2. Tarbiya metodlari.
3. Tarbiyaning tarkibiy qismlari

**Tayanch so'z va iboralar;** *Tarbiya metodlari, tarbiyaning tarkibiy Aqliy tarbiya ,Axloqiy tarbiya.*

##### **1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha.**

Maqsad, mazmun, shakl, metod va vositalar kabi tushunchalar tarbiya jarayonining mohiyatini ochib beradi. Biroq, tarbiya mohiyatini yoritishda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan yana bir tushuncha ham mavjud, bu tarbiya metodlari tushunchasidir. Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir. Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga birorta tarbiyachining kuchi yetmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya

jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi.

Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq.

Tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to'g'ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur.

Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlardir. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

### **Tarbiyaning tarkibiy qismlari.**

Aqliy tarbiya – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, shaxs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlaydi, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Aqliy tarbiya yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega shaxsni tarbiyalashda yetakchi o'rin tutadi. Bilimlar tizimini ongli ravishda o'zlashtirish mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, idrok etish, aqliy qobiliyat, moyillik va iqtidorni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Aqliy tarbiyaning vazifalari quyidagilar sanaladi:

- shaxs tomonidan ilmiy bilimlarning muayyan hajmini o'zlashtirilishiga erishish;
- bilishga bo'lgan qiziqishlarni yuzaga keltirish;
- aqliy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish;
- bilishga bo'lgan faollikni kuchaytirish;
- mavjud bilimlarni muntazam ravishda boyitib borish, umumiy o'rta ta'lim va maxsus kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish.
- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Muhammad alayhissalom o'z hadislarida; «Ilmga ilm olmoq yo'li bilan erishilgandir. Ilmu hunarni Xitoyga borib bo'lsa ham o'rganinglar. ... Ilm egallang. Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'iz damlarda yo'ldosh baxtsiz daqiqalarda rahbar, qayg'uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat,

dushmanlarga qarshi kurashishda quroldir» deydi. Shuningdek, hadisi Sharifda «Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir» deyiladi.

Alisher Navoiy o'zining «Farhod va Shirin» dostonidan Farhodning aqlu-idrokli, bilimdon, hunarmand, kamtar, insonparvar, irodali va e'tiqodli bo'lganligini tasvirlaydi.

Demak, yuqorida ta'kidlaganidek, yoshlarni aqliy jihatdan kamol toptirishning birinchi sharti ularni ilm olishga da'vat etishdir.

Jismoniy tarbiya o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarishga asoslangan mavjud ijtimoiy sharoit jismonan baquvvat, ishlab chiqarish jarayonida yuqori unum bilan ishlashga qodir, qiyinchiliklardan cho'chimaydigan, shuningdek, vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash zarurligini ko'rsatmoqda.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash, ularni to'g'ri jismoniy rivojlantirish;
- o'quvchilarning aqliy va jismoniy ish qobiliyatlarini oshirish;
- ularning tabiiy harakatchanligini rivojlantirish va mukammallashtirish;
- o'quvchilarni harakatning yangi turlariga o'rgatish;
- ularning irodaviy sifatlari (kuch, chaqqonlik, uquvlilik va boshqalar)ni rivojlantirish;
- o'quvchilarning gigiyenik ko'nikmalarni rivojlantirish;
- ularda ma'naviy-axloqiy sifatlari (dadillik, qat'iyatlik, intizomlilik, mas'uliyatlik, jamoa bilan bo'lish)ni tarbiyalash;
- o'quvchilarda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy va muntazam shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;
- o'quvchilarning sog'lom va baquvvat bo'lishlariga erishish.

Jismoniy tarbiyani bolalarning maktabgacha yoshidan boshlab muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tarbiya ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan fanlardan biri sanaladi. Sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda tashkil etiluvchi jismoniy mashg'ulotlar jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini ta'minlovchi qo'shimcha tadbir hisoblanadi. Jismoniy tarbiya tarbiyaning boshqa tarkibiy qismlari bilan mustahkam bog'langan hamda ular bilan birgalikda har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish vazifalarini hal etadi.

Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish maqsadida tashkil etiluvchi pedagogik jarayondir. Axloqiy tarbiya ham ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiya asosini shaxsni ijtimoiy axloqiy

me'yorlardan xabardor etish tashkil qiladi. Axloq (lot. «moralis» - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllarida biri hisoblanib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sifatida aks etadi.

Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar mazmunida o'z ifodasiga ega bo'lgan. Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazimiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Sa'diy Sherozi Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning axloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan.

### **3.2.Bolalar temperamenti va xarakteridagi normal sifatlar va ularni tarbiyalash.**

#### **Reja:**

1. Bolalar temperamenti va xarakterini tarbiyalash omillari.
2. Temperament xaqida umumiy tushuncha.
3. Xarakterdagi normal sifatlar.

**Tayanch so'z va iboralar;** *Psixopat, infantil, eksploziv, affektiv.*

Xarakter buzilishi hozirgi kunga kadar «psixopatiya» deb ataladi. (hozir G'arb mamlakatlarida bu atama deyarli qo'llanilmaydi). Psikopat shaxsiyatining ko'pchiligi infantil bo'ladi va shaxs o'zini namoyon qilishini ongli nazorat qilishga kadir emas. Bu buzilishlar turli komplekslar va nafsoniyat bilan birgalikda axloqni tashqillashtirishda xukmronlik qiluvchi mayllar, istaqlar giperbolizatsiyasida ifodalanadi. Bularning barchasi shaxsning imkoniyatlariga to'g'ri keladigan maqsadlarni oldiga kuyishi va ularga rejalashtirilgan ravishda erishishiga tuskilik qiladi. SHunday qilib, xissiy-irodaviy anomaliya psixopatning atrof- muhitga moslashuviga xalakit beradi. Garchi psixopatiyada ko'prok shaxsiyat azob cheksada, shuningdek boshqa ruxiy va ayniksa, affektiv sohalarning disproportional, diskordinatli rivojlanishi ham uchrab turadi. Eksploziv, affektiv yoki boshqa buzilishlarning ustunligi shaxsiyat va affektiv soha buzilishining shakllanishi xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Psixopatiyaning bir kancha asosiy shakllari ajratiladi.

Inson psixologiyasini bilishda, o'z imkoniyati, iqtidorini anglay olish, faoliyatini tashqil etish, har qanday yosh davrida ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni ob'ektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammolari ilgari suriladi.

SHunday qilib, yangi davr har bir insondan o'z ichki imkoniyatlarini adekvat

baholashni, shuningdek, psixologik bilimlar zaxirasi bilan yaqinlari va hamkasblari psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda.

Insonning qizg'in o'zgarishlarga boy hayoti endilikda undan psixik hodisalar qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zarurligini talab qilmoqda.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida, fanlar tizi- mida psixologiya fani muhim ahamiyatga ega. Akademik B.M. Kedrovning fikricha, psixologiya o'zlashtirilayotgan gumanitar, aniq va maxsus fanlarning markazini tashqil etadi.

Xozirgi kunda psixologik bilimlarga ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "bu hayotda odam ba'zan o'zini yuqotib qo'yadigan g'oyat murakkab muammolarga duch keladi. Keskin vaziyatdan chiqishning iloji yo'qdek tuyuladigan holatlar bor. SHunday paytda, ishdan va hayotda, jamiyatda og'ir savdolarga duch kelganda kim o'zining yo'lini yo'qotmasligi mumkin? o'ylaymanki, birinchi navbatda o'z kuchiga ishongan, ruxiy dunyosi, ma'naviy olami baquvvat bo'lgan odamgina bunday vaziyatdan yorug' yuz bilan chiqsa oladi.

Inson xulq-atvori, psixologik xususiyatlari bilan bog'liq masala insoniyatni qadim zamonlardan buyon qiziqtirib kelgan. Bu sohada izlanish olib borgan ko'plab olimlar insonning tug'ilganidan boshlab shakllanishi bilan bog'liq barcha hodisalarni o'rganishni tadqiq qilish orqali, uning o'ta murakkab jihatlarini kashf etgan. Haqiqatdan ham, inson xulq-atvorining jamiyatda belgilangan hayotiy normal mezonlardan og'ishi, buzilishi bilan bog'liq muammoni psixologiya fani o'rganadi. Demak, psixologiyada deviant, ya'ni og'uvchi axloqning turli shakllari, anomal turlari, sabab va motivlari mavjud bo'lib, bu pedagoglar, psixologlar, psixoterapevt va boshqa inson ongi va tarbiyasi masalalari bilan shug'ullanuvchi soha mutaxassislari bilan birga, ichki ishlar idoralari kasbiy psixologiya sohasi hodimlarining ham tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

#### **IV-Mavzu. SHaxs nevrotizatsiyasi simptomlarini diagnostika qilish.**

##### **4.1. SHaxs nevrotizatsiyasi simptomlarini diagnostika qilish.**

###### **Reja:**

1. SHaxs nevrotizatsiyasi xaqida umumiy tushuncha.
2. Simptomlarini diagnostika qilish metodlari.

**Tayanch so'z va iboralar** *Agressiya, TSikloidli mijoz, SHizoidli mijoz, Endomorfli, Mezomorfli, Ektomorfli.*

O'smirning deviant axloqini diagnostika qilish uchun psixologlar tomonidan «qarshi harakat» deb nomlanuvchi mezonlar ishlab chikilgan. Bunday holda, ular ijtimoiy, o'quv yoki shaxslararo sohadagi buzilishlar bilan bog'liq eksternal deviantsiyani (nafrat, dushmanlik, tajovuz, o'g'rilik, yolg'on) o'z ichiga oladi.

O'smirdagi deviant axloqning muomala belgilari (DSM - IY bo'yicha)

- xis- xayajonli portlashlar;

- kattalar bilan janjallar;
- kattalarning qoidalari yoki iltimoslarini mensimaslik yoki bajarishni rad etish;

- boshqa odamlarni jurttaga bezor qilish;
- o'z xatolarida boshqa birovlarini ayblash;
- jizzakilikning eng keskin darajasi;
- badjahlilik, darg'azablik, kasoskorlik, kek saqlash;
- xaqoratlar va uyatsiz so'zlarni tez-tez ishlatish.

Tadqiqotlarga ko'ra, bunday tajovuzkorlik, gipperfaollik va ota-onalari bilan o'zaro munosabatlarda qiyinchilik alomatlari yakkol ko'rinib to'rgan bolalar kattarok yoshga yetganlarida hayotda bunday muammolari bulmagan bolalarga nisbatan besh marta ko'prok jinoyatchi yoki ichkilikboz bo'lib yetishganlar.

SHaxsni ijtimoiylashtirish umumiy jarayonining bir qismi uni huquqiy ijtimoiylashtirish bo'lib, uning mohiyati shaxs tomonidan huquqiy qadriyatlarining uzlashtirilishi, ularni uz hayoti va axloqining me'yorlariga, shaxsiy sifatlariga aylan- tirishidan iborat.

O'z huquqini tanish - yuridik ahamiyatga ega bo'lgan vaziyatlarda inson axloqini tartibga soluvchi yuridik bilimlar, huquq va uni qo'llash amaliyotiga bo'lgan baholovchi munosabatlar, huquqiy yo'l-yuriklar va kimmatli yunalishlar shaklidagi huquqiy borliqni aks ettiruvchi jamiyat, gurux va individual ong doirasidir.

Agressiya – desturktiv tabiatga ega bo'lgan individual biologik yoki ijtimoiy xulq ko'rinishidir.

Psixologik tadqiqotlarda agressivlik xolatining biologik va ijtimoiy psixologik omillarga ega bo'lib o'zidagi agressiv xolatlarni boshqara olish qobiyaliyati juda kam insonlarga qodir ekanligini ta'kidlanadi

Agressiya atamasi lotin tilidan olingan bo'lib “aggređi”, “ tajavvuz qilmoq”ma'nosini anglatadi

Psixologiyada “ Agressiya” atamasiga nisbatan turli yondoshuvlar mavjud bo'lib Del'dago, Buss, Semen'yuk, Parens, Bandura Uolters, Mojginskiylar tomonidan agressiya negativ baxolanadi

SHu bilan bir qatorda agressiyaga nisbatan pozitiv yondoshuvlar xam mavjuddir Jumladan Bender:” Agressiya –bu insonning o'z o'zini namoyon qilishga intilishidir “ deb ta'kidlaydi Motivlashtirish nuqtai nazaridan agresssiya ixtiyoriy va instumental turlarga ajratiladi.

Ixtiyoriy agressiya motivi inson boshqaga anglangan tarzda zarar yetkazish xisoblanadi.

O'smirlik agressiyasi muammosi uzoq vaqt mobaynida yopiq bo'lgan mavzular sarasiga kiritilganligi bois yetarli darajada o'rganilmagan mavzulardan biri xisoblanadi

Agressiya o'smirlarda yuzaga kelgan ijtimoiy vaziyat xodisalar ustidan o'ziga xos nazorat qilishning maqbul usuli sifatida qabul qilinadi

Krechmer tomonidan ajratilgan shizoidli va tsikloidli turlar - shaxsga tegishli astenik va piknik tana tuzilishiga asoslangan. Bunda ular endi shaxs xususiyatlarining oddiygina ta'rifi bulmaydi, balki u yoki bu darajada uzlarida diametral qarama-qarshi an'analarni uyg'unlashtiradi.

SHizoidli mijoz - jizzakilik va omilik kutblari orasida turadi. Uning mumkin bo'lgan harakteristikasi: odamovi, bosik, jiddiy, galati, tortinchok, xadiksirovchi, xissiyotga beriluvchan, xayajonli, itoatkor, vijdonli, beparvo, omi, kalta faxm.

TSikloidli mijoz - kuvnoklik va gamginlik kutblari orasida turadi. Uning mumkin bo'lgan harakteristikasi: kiri- shimli, ko'ngilchan, muloyim, samimiy, aqli o'tkir, chakkon, kaynok, yuvosh, bosik, yumshok.

Masalan, quvnoq mijozli shaxs - sangvinik, faqat kuvnok bo'ladi va uz tabiatida diametral qarama-qarshi holatlarni, xususan tushkunlik va qayg'ulik holatlarini saqlamaydi. Boshqacha aytganda, mazkur tipologiyada inson shaxsiyatining jadalligida yashirib yotgan qarama-qarshiliklar ko'rib chiqilmaydi. SHu bilan birga, bu qarama-qarshiliklar ba'zan shunday kuchga erishadiki, ular atrofdagilar uchun umuman kutilmagan va tushunarsiz shaklda, masalan, doimo o'ta quvnoq deb hisoblangan kishining o'zini o'zi birdaniga o'ldirishi yoki oilaning durustgina otasi kutilmaganda qotillik sodir qilishi ko'rinishida namoyon bo'ladi va Krechmer jinoiy axloqning xususiyatlari to'g'risida aynan konstitutsiyaviy tafovutlar oqibati bo'lgan psixologik xususiyatlardan kelib chiqadi deb xulosa qiladi. Demak, uning fikricha, tsirkulyar doiradagi shaxs turlari - tsikloidlarda - asotsial xislatlar ancha kam uchraydi. Garchi bunday tuzilishdagi odamlarga, deb hisoblaydi Krechmer, qo'pollik va shafqatsizlik, jasurona va o'ylamay qilingan ishlar, aloxida hollarda esa ichkilikbozlikka moyillik, isrofgarchilik, shaxvoniy buzuvchilik xos bo'lsada, bari bir ularning jinoyatlari asosan agressiv holatdagi yoki extiyotsiz harakatlar sababli odam o'ldirish bilan chegaralanadi.

Aksincha, xaddan ziyod ta'sirchanligi va sovukkonligi bilan ajralib turuvchi shizoid odamlar, bagritoshlikka moyildirlar. Tashqi dunyo bilan aloqaning yo'qligi «shisha to'siq» yaratishga olib keladi. SHunday ekan, ularda ba'zan: "Men" va tashqi dunyo, degan keskin antiteza (kiyoslash) rivojlanadi, doimiy ravishda: "Men qanday harakat kilyapman? Kim menga adolatsizlik kilyapti? Men kimga yon bosdim? Men endi qanday kun kechiraman?" deb o'zini uzi taxlil qilish va takkoshlash sodir bo'ladi. Agar anestetik kutblilarda xissiy omilik, sovukkonlik va befarqlik uchrasa, giperestetik kutbli odamlarda jizzakilik, xissiyotga beriluvchanlik, qiziqkonlik kabi xislatlar ajralib turadi. Bu xislatlarning yanada rivojlanishi ko'pollik, kaysarlik, badkovok shafkatsizlikka olib kelishi mumkin.

Bunday taxlil Krechmenga shizoidlar negizida darg'azab omilar yoki darg'azab shafkatsizlar to'rini ajratish mumkin, deb xulosaga kelish imkonini berdi. Biron-bir kompleksga yengilgina tegib ketganda omilikning kobigini yorib utib, birdaniga kattik g'azab kuzgalishiga olib keluvchi ichki jizzakilik uchquni ularni ajratib turuvchi xususiyati hisoblanadi. SHizofrenik g'azabning bu shakli o'zining yashirin affektiv turgunligi va bema'ni ravishda yumshashining psihologik mexanizmiga ko'ra miyaning shikastlanishi va tutqanoqning ma'lum alomatlari bilan ba'zi o'xshashliklarga ega. Darg'azab-omi shizoidlar uyda uta shafkatsiz, xavfli va zolim bulishlari mumkin. Ular atrofdagilarga beraxm, xissiz munosabatda bo'ladilar va uzlarini pedantik mayllariga ko'ra boshqaradilar. Krechmerning fikricha, sadistlarcha tarkibiy kismlar bilan uyg'unlashgan nobop shaxs tuzilishi xususiyatlarida aynan shizoidli xissiy sovuklik tajovuzkor-zo'ravonona jinoiy harakatlarning uta shafkatsizlik bilan namoyon bo'lishiga olib keladi.

Krechmer kontseptsiyasi, soddaligiga qaramay, o'zining maqsadliligi va dialektikligi bilan xayron qoldiradi. Irsiy- konstitutsiyaviy belgilarga asoslangan holda va psihologik xususiyatlarining namoyon bo'lish doirasiga shizofreniya va maniakal-depressiv psixoz kabi ma'lum ruxiy kasalliklarni kiritgan holda, u shaxsning tipologiyasini tuzishga asos bo'lib xizmat qilgan ruxiyat individualligining mexanizmini ushlab kola oldi. Bunday yondashuv tufayli ruxiy-diagnostika jinoyatchi shaxsning juda kam vaqtini oladi va ko'p jihatdan faqat uning axloqini tashkaridan baholashga bog'liq bo'ladi. SHu vaqtning uzida, shaxsning konstitutsiyaviy xislatlarini mutlaqlashtirish va shaxs rivojlanishining ijtimoiy shart-sharoitlarini mensimaslik, uning ruxiy hayotining xususiyatlarini tushuntirishda psihologik determinantning yo'qligi, shuningdek uz klassifikatsiyasida faqat ikkitagina turni - shizoid va tsikloidni ajratish Krechmer nazariyasining cheklanganligi hisoblanadi, bu esa uning kontseptsiyasini jiddiy ravishda kashshoklashtiradi.

Delinkvent axloqni ta'riflashda Krechmer yondashuvlarining bevosita vorisi SHeldon bo'ldi. U bir nechta ishlarida shaxsning jismoniy konstitutsiyasi, xossalari va jinoiy axloqi o'rtasida aloqa o'rnatdi. O'zining empirik tadqiqotlari asosida SHeldon jismoniy konstitutsiyaning Krechmerning turlari bilan takkoslanadigan endomorfli, mezomorfli va ektomorfli uch turini ajratadi.

Endomorfli - jussasi sferik shakldagi, yumshoq, katta qorinli, dumaloq boshli odam, ichki organlari yirik, qo'llari va oyoklari bo'shashgan, suyaklari va mushaklari rivojlanmagan bo'ladi.

Mezomorfli - yelkalari va ko'krak qafasi keng odam, ko'llari va oyoqlari muskulli, teri osti yog'lari kam miqdordagi, katta boshli odam.

Ektomorfli - chuzik yuzli ozg'in odam, peshonasi keng, kullari va oyoklari ingichka uzun, ko'krak qafasi tor va qorinli, muskullari rivojlanmagan bo'ladi.

## 4.2. Nevroz, uning ko'rinishlari, turlari.

### Reja:

- 1 .Xavotirlik darajasi, uni aniqlash metodlari.
- 2 .Nevrotik sindromlar va ularni aniqlash.

**Tayanch so'z va iboralar** *Nevrotik sindromlar, Nevrozlar, Psixopatiya, Karakter aktsentuatsiyasi.*

**Nevrozlar** - bu turli tizimlar va organlarda funktsiyaning boshqa (ko'pincha ikkilamchi) o'zgarishlari bilan bir qatorda ruxiy-asab faoliyatining ong va ruxiyat doirasini son jihatdan izdan chiqaruvchi funktsional buzilishlar.

Ruxiy sotsial dezadaptatsiya shaxs rivojlanishining jinsiy, yoshga oid va o'ziga xos ruxiy xususiyatlari bilan bog'liq.

Axloqning bu holatda namoyon bo'ladigan nostandartligi sub'ektda axloq sabablarini tanlashning jiddiy chegaralanishiga olib keluvchi rivojlanishdan orqada qolish, shaxsiy qoloqlik, past refleksivlik va xokazolar sababli sub'ektda mavjud ijtimoiy va huquqiy me'yorlar interiorizatsiyasining yetishmovchiligi tufayli sodir bo'ladi.

Bu holda, organizm ehtiyojlari kishi tomonidan ixtiyoriy boshqaruvni yo'qotadi, shaxsda ularni ongli maqsadda ifodalash imkoniyati mavjud bulmaydi. SHuning uchun, shaxsning ehtiyoj- larini boshqarib bo'lmaydigan bo'lib koladi va qiziqishlar harakterini egallaydi. Agar bu holda individ birdaniga bir nechta maylni xis etsa, ulardan eng kuchlisi g'olib bo'ladi.

O'z tabiati va harakteriga ko'ra ruxiy ijtimoiy deza- daptatsiyaning turli shakllari **barqaror** va **muvaqqat beqaror** shakllarga bo'linadi. Harakterning psixopatiyasi yoki aktsentua- tsiyasi ko'rinishidagi barqaror shakllar genetik, ona kornidagi yoki shikastlovchi jaroxatlar (entsefalit, boshning shikastla- nishi) natijasida, shuningdek noto'g'ri tarbiya berish natijasida vujudga keladi. SHaxsiyatning buzilishi bu holda mayllar, istaqlarning giperbolizatsiyasida, shuningdek shaxsning o'z oldiga imkoniyatlariga mutanosib bo'lgan maqsadlarni quyishi va ularga erishishiga to'sqinlik qiluvchi harakter chizgilarida ifodalanadi. SHunday qilib, birinchi navbatda xis-xayajonli, irodali, kommunikativ yoki qo'zg'atuvchi muhit buziladi, bu esa shaxsning atrof-muhitga moslashuviga halaqit beradi.

**Psixopatiya** - ruxiyatning me'yordan chetga chiqishi bo'lib, unda shaxsning mutanosib ravishda rivojlanish, sub'ektiv xissiy tajriba va muvozanatdagi xis-xayajonli xulqini namoyon qilish layoqati kamayadi.

**Harakter aktsentuatsiyasi** - me'yorning eng keskin varianti bo'lib, unda harakterning aloxida xislatlari ustunlik qiladi.

Ruxiy-ijtimoiy dezadaptatsiyaning muvakkat beqaror shakllariga, avvalambor, o'smirlik yoshidagi rivojlanishning tanglik davrlari va tangligining ruxiy-fiziologik xususiyatlarini kiritish mumkin. Ma'lumki, shaxs o'smirlik yoshida suyak-mushak va yurak-tomir tizimi jadallashgan va notekis rivojlanayotgan, jinsiy yetilish bilan birga sodir bo'ladigan "endokrin buron" bilan tavsiflanuvchi global ruxiy-fiziologik va ruxiy- ijtimoiy yoshga bog'liq tanglikni boshdan kechiradi. Xayotining bu davrida o'smir jinsiy masalalarga kuchli qiziqishini namoyon qiladi, tengdoshlari bilan muloqot qilishga va uz shaxsiyatining ahamiyatini ko'rsatishga intiladi. Unda o'zini uzi baholash va o'zini anglash faol shakllanadi, u kattalardan ajralib turishga harakat qiladi, ular bilan ziddiyatga boradi. Buning oqibatida ham atrofdagilar uchun, ham o'smirning o'zi uchun uta qiyin bo'lgan o'smirlik dezadaptatsiyasining vaqtinchalik ko'rinishlariga olib keladi.

Ruxiy-ijtimoiy dezadaptatsiyaning muvaqqat shakllari, shuningdek maktabdagi, uydagi, tengdoshlar bilan yuz bergan ziddiyatli vaziyatlar, ilk muxabbat tashvishlari va xokazolar oqibatida vujudga kelishi mumkin. Atrofdagilarning shakllangan talablariga yoki shakllangan shaxsiy idealga mos kelish imkoniyati yo'qligi affektiv asabiy tashvishlarga va xatto yosh uchun xos bo'lgan ruxiy-somatik parokandalikka, masalan, anoreksiya yoki bulimiyaga olib kelishi mumkin.

## **V-Mavzu. Tarbiyasi qiyin bolalar psixologiyasi.**

### **5.1.Norasmiy, kriminal guruhlarda o'smir shaxsining shakllanishi.**

#### **Reja:**

1. Guruh haqida umumiy tushuncha.
- 2.Norasmiy guruhlar .
- 3.Kriminal guruhlarda

**Tayanch so'z va iboralar** *Guruh,Norasmiy guruhlar,Kriminal guruh, Jinoiy submadaniyat asotsiatsiyalar, korporatsiyalar, diffo'z*

Guruh bu ijtimoiy yaxlitlikdan ma'lum belgilariga ko'ra (faoliyat xarakteri, ijtimoiy mavqei, rivojlanish darajasi va b.q.) ajratib olingan, chegaralangan hajmga ega kishilar jamoasidir.

Guruhlar ko'pincha quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

- Hajmiga ko'ra(katta, kichik, mikroguruhlar);
- Ijtimoiy mavqeiga ko'ra:formal – nofarmal(rasmiy - norasmiy);
- O'zaro bog'liqlik hususiyatlariga ko'ra(real, kontaktli va shartli);
- Rivojlanish darajasiga ko'ra(past daraja: asotsiatsiyalar, korporatsiyalar, diffo'z; yuqori darajali: jamoalar);

- Ahamiyatligiga ko'ra(referent, aʼzolik guruhlar);

Ajratilgan belgilar har bir konkret guruhni faoliyatdagi maqsad va vazifalarini o'ziga hosligini belgilab beradi.

o'z-o'zini taxlil qilish, shaxsiy ko'nikmalarni hosil qilish, shaxslararo munosabatlarni taxlil qilish maqsadida sun'iy birlashgan kichik guruhlariga aytiladi. Bu o'zaro taʼsir shu yerda va hozir tamoili asosida guruh aʼzolari o'zlari bilan yuz berayotgan jarayonlarni o'rganadilar. Delikvent muhitni harakterlovchi mazkur yondashuvning muhim tushunchasi jinoiy kriminal submadaniyat ta'rifi hisoblanadi.

Jinoiy submadaniyat - jamiyatning cheklangan kismiga, jinoiy yunalishdagi fuqarolarga nisbatan bo'lgan ma'naviy hayotdir. Jinoiy submadaniyat huquqbuzarlarni birlashtiradi, ularning axloqini tartibga soluvchi sifatida chiqadi. Lekin uning asosiy xavfi shundaki, u jamiyat ongini buzib kursatadi, jinoiy tajribani boshqa shaklga aylantiradi, aholining odamo- xunligini zaiflashtiradi, yoshlarni ijtimoiylashtirish jarayonini susaytiradi, ma'lum huquqiy me'yorlarni buzishning (masalan, solik tulashtan buyin tovlash) maqsadga muvofiqligi to'g'risida jamoatchilik fikrini shakllantiradi, ayrim toifa- dagi jinoyatchilarning ijobiy kiyofasini yaratadi, aksincha, huquqni muxofaza qiluvchi organlarga yordam beruvchi fuqarolar- ni koralaydi. Boshqacha aytganda, bu jihatdan jinoiy submadaniyat umumiylikni, avvalambor, yoshlar muhitini krimi- nallashtirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Submadaniyat- ning markaziy elementi kriminal psixologiya, ya'ni jinoiy hayot tarzi va huquqbuzarlik sodir etilishini oklovchi va ragbatlantiruvchi odamlar ongida yozilmagan ijtimoiy qadriyat- lar va tasavvurlar tizimi hisoblanadi.

Submadaniyatning boshqa eng muhim elementi - bu axloqning kriminal me'yorlari (qoidalari)dir, ular jinoiy hamjamiyatning, uning a'zolarining ijtimoiy makomi va huquqlari; huquqni muxofaza qiluvchi organlar va axloq tuzatish muassasalari ma'muriyatiga munosabati; ozodlikdan maxrum etish joylaridagi va turmushdagi xulqi; mexnatga munosabati; shaxslararo ziddiyatlarni xal qilish tartibi; jinoiy hamjamiyatga yangi a'zolari qabul qilish ("propiska"qilish) marosimlari; «yigilish»lar qilish tartibi va «qonundagi o'g'rilar»ga toj kiydirish va hokazolardan iborat butun hayot faoliyati doirasini boshqaradi.

Stratifikatsiya, ya'ni odamlarni jinoiy muhitdagi real xokimiyatga nisbatan ularning obru-e'tiboridan kelib chiqqan holda shartli ierarxik guruxlarga ajratish jinoiy submadaniyatning o'ziga xos elementidir. Jinoiy submadaniyatning boshqa bir o'ziga xos elementi sifatida jinoiy muloqot, xususan, jargon (jinoiy til), lakablar, tatuirovkalar kabi vositalarni keltirish mumkin.

## **5.2.O'smir shaxsidagi patologik sifatlar haqida nazariy yondoshish.**

### **Reja;**

#### **1.O'smirlik davri psixologiyasi.**

2.O'smirlik davridagi inqiroz.

3. O'smir shaxsidagi patologik sifatlar

**Tayanch so'z va iboralar;** *emotsional inkor, patologiya, tobelik, Taqlid fenomeni ,Xulqiy omillar, Ijtimoiy omillar.*

O'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, ahlokiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun-mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smir hayotida, ruhiyatida, organizmining fiziologik jarayonlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat vaziyatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil holatlar kuzatiladi. O'smirlarda agressivlik xolatlarini shakllanishiga qator shaxs xususiyatlari ta'sir qiladi:

-tarbiyaning muvoztalashmagan shakllari o'z o'ziga xaddan ziyod nodaekat past baxo berish yuqori darajada impulsivlik ,algkogolb va narkotik moddalari istemol qilish kompyuter o'yinlariga tobelik , tavakkalchilikka tayyorlik xolatlar o'z o'zini ximoya qilish xisslarining chegaralanganligi

-Xulqiy omillar ( atrofdagilar xayotida xalaqit qiluvchi omillar ( o'z vaqtini maqsadsiz o'tkazish , maktabdagi darslarni sababsiz qoldirish o'zlashtirish darajasining pastligi erta jinsiy aloqalarga kirish , va x-zo);

-Ijtimoiy omillar ( OAV psixologik ta'siri, jamiyatda udum va marosimlar , ota onaning xulqiy buzilishlarga ega ekanligi , oilaning ijtimoiy mavqeining pastligi tarbiyaichlarning o'zgarishi ( o'gvy , o'gayts oan )

- O'smirning tarbiyada xulqiy og'ishlari shakllangan do'stlar bilan yaqin ijtimoiy aloqalarning o'rnatilishi ( Taqlid fenomeni)

- Ichki oilaviy nizolar ( ota onaning ajralishi ,ikki7nchi nikoxdagi farzandlar , o'smirning o'zlashtirilishiga ota ona tomonidan o'smir qobiliyatlari , qiziqishlari inobatga olinmagan xolda xaddan ziyod fqori talabalarning qo'yilishi Disffnuksionla oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlarda agressiv xulq ko'rinishlarining shakllanishi extimoli funktsional oilalarda trpabiyalanayotna oilalardlagi o'smirlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan

Oiladagi xaddan ziyod o'smir erkinliklarini cheklash yoki aksincha ota ona tomonidan surunkali befarqlik ham shuningdek agressiv xulq ko'rinishlarini shakllanishga olib keladi Agressiv xulq oilada o'smirning erkinliklari xadan ziyod chegaralanganda yoki unga xaddan ziyod erkinliklar berilganda ham shakllnishi mumkin

.Agar o'smir oilada barcha extiyojlarini tezlik bilan qondirildishiga o'rganib qolgan bo'lsa , tengdoshlari jamoasida uning extiyojlariga to'sqinlik qilganga nisbatan agressiv munosabat bildiradi.

Oilada emotsionl inkor etilganlik xolatlarida ham o'smirlar o'zlarining agressiv xulqa ko'rinishlari bilan o'zlariga oila a'zolariningn e'tiborini qaratishga xarakat

qiladilar Ota –oan o'smir xulqidagi o'zgarishlar sababini izlash o'zaro munosabatlarni o'zgartirishga xarakat qiladilavr

Agar o'smir oila a'zolari muntazam tarzda o'zaro nizolar , baqiriqlar orqali ta'sir o'tkazish asosida muammolarini xal etishga o'rgangan bo'lsalar , boshqa ijtimoiy vaziyatda aynan o'zni shunday to'tishga intiladi

-SHaxsiy muammolar (fiziologik va psixologik xarakterdagi muammolarni kelib chichishiga sabab bo'luvchi pubertat davri xususiyatlarining namoyon bo'lishi ) O'zining tashqi ko'rinishidan norozi bo'lish ( Terzit kompleksi)kattalar tomonidan noadekvat idrok qilinishi O'smir o'zini kattdek xis etadi , unga bolalar kabi munosabat bo'lishlari yoqmaydi .O'smirdagi taffakurning tanqidiyligi kattalar xatti xarakatiga nisbatan shubxa bilan qarash,ulardagi axloqiy me'yorlarga nisbatan e'tiroz xislarini shakllanishga olib keladi

- O'smirga nisbatan ma'lum bimir ijtimoiy tamg'alarning bosilishi ( o'qituvichlar tomonidan o'smirning o'zlashtira olmasligi , tarbiyasizligi , u bilan gaplashish befoydaligi aytilishi oqibatida) “ Men katta man ular esa men bilapn bolalarpga o'xshab munogsabatda bo'lmoqdalar “

-Ijtimoiy omillar jamiyatda muammolarni kuch ishlatish orqali hal etilishi xaqidagi g'oyasining o'rnatilganligi maktablardagi o'quv sinflarning xaddan ziyod to'ldirilganligi maktabad xaddan ziyod charchash , asabiylashish )

Agressiv xulq shakllanishi “agressor” va “qurbon” rollari ajratiladi .

O'smirlardagi xulqiy ko'rinishlarning A. Bandura i R. Uoltere lar «passiv melanxoliya» i «agressiv ximoyalanish»deb atab ,”Agressor” va “ qurbonlar” mavqeini almashib turish xaqida fikrlarini bildirdganlar

Norvegiyalik psixolog D. Olveu “agressorlar” va “qurbon”larning tipik xulqiy ko'rinishlarini tasifini keltirgan

Maktabdagi agressorlar . tengdoshlari va kattalarga nisbatan o'zlarini yuqori tutadilar ,ruxiy og'riqqa nipabatan og'riqni xis etmaydilar o'zlarini dominant tutadilar yuzaga kelgan nizoli vaziyatlarni xal etishning jismoniy kuch ishlatish orqali xal etadilar Ko'proq o'g'il bolalarda bo'ladi

“ Agressorlarni” affekt xolatlarida o'z o'zini yetrali darajada idora eta olmaslik xolatlari shakllanadi O'zlarining tengngdoshlariga nisbatan kuchliroq , o'zlaridan kuqchsiz bo'lganlarni “ Qurbon” sifatida tanlaydilar.

Pedagog va psixologlar tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda e'tiborini nafaqat agressorlar balki qurbonlar ham talab qiladi Ya'ni ushba toifadagi o'smirlar “ Ijtimoiy autsayder “ atamasi bilan nomlanadilar Ushbu o'smirlar passiv va namoyishkorona turlarga ajratiladi Passiv tipdagi qurbonlar bosiq ,xadiksirovchi qo'rqqoq bo'ladilar Odatda ularda o'z to'ziga past baxo berish o'zlarini ko'rimsiz kuchsiz deb baxolashlari kuzatiladi Ularga nisbatan xujum jarayonida yig'laydilar . qochadilar Maktabda maxallada o'rtoqlari kam bo'ladi

Ikkichi gurux namoyishkorona tipdagi uchun agressorlarga xos bo'lgan xususiyatlar namoyon bo'ladi. Bu o'smirda bir vaqtning o'zida agressiv xam qo'rqish xolatlari namoyon bo'ladi. Bu o'smirlar impulsiv agressiv va xulq ko'rinishlari ulardagi qo'rqish va xavotirlanish xolatlari birgalikda namoyon bo'lishi doimiy tarzda kurashga tayyorlik xolatlari kuzatiladi bilan birgalikda namoyon bo'ladi. O'zlarining xulqi bilan ular o'zlariga nisbatan atrofdagilarning noroziligi agressivligini jalb qiladilar. Bir tomondan ular o'zlarining xulqi bilan atrofdagilarni agressiv munosabatlarni jalb qilsalar, boshqa tomondan o'zlarini kuch ishlatish xarakatlariga jalb qilishga oson moyillik bo'ladilar. Ushbu toifadagi o'smirlar tengdoshlari, kattalar tomonidan yoqtirmaydilar.

Agressivlik o'z o'zidan paydo bo'ladigan xolat emas. Ko'p xollarda psixologik muammolarni hal etishda ojizlik xolatlari ta'sirida shakllanadi.

Charchash agar o'smir xaddan ziyod charchagan bo'lsa psixik agressiya psixik resurslarni imkoniyatlarini cheklanganligi oqibatida shakllanadi. Agressiya charchash xolatlarini chuqarlashtiradi.

O'z-o'zini negativ idrok etish «Men yomon odamman. SHuning uchun uchun o'zimni shunday tutaman» Bora yomonlik xissi o'smir uchun chuqur shaxsiy ustanovkaga aylanadi. Bu toifadagi o'smirlarda arzimagan yumshoq tanqidga nisbatan ham psixik og'riqni shakllanishiga olib keladi.

Agar o'smir insonlar bilan munosabatlarda negativ tajribaga ega bo'lsa u erta ximoyalanişga intiladi. Ko'p xollarda uning xayotiy tajribasida shunga o'xshash xolatlar uchragan, o'zi uchun xavfli deb xisoblagan vaziyatdan ximoyalanişga xarakat qiladi.

O'smirda yaqin ijtimoiy muxitdagi insonlar bilan yaqin emotsional munosabatlar o'rnatilmagan bo'lsa o'zini ximyasiz xisoblaydi, xavotirlanish darajasi yuqori bo'lib qshrquv fobiya xolatlari shakllandi.

O'smirlar agressiyasi muammosini o'rganish bevosita ommaviy axborot vositalari, video filmlar orqali berilayotgan ko'rsatuvlar o'ziga xos taqlid fenomeni sifatidagi axamiyatini o'rganishni talab qiladi. O'ziga xos agoressiv xulqiy streotip sifatida o'smirlarni xarakatlarini boshqaradi.

### **5.3 Tarbiyasi qiyin bolalar, ularning turlari.**

Sub'ektning ruxan o'zini o'zi yemiruvchi axloqini tushunish uchun uning dunyoga nisbatan bo'lgan ratsional va irratsional munosabatlari xususiyatini hisobga olish zarur. Inson uz axloqini mavjud hayotda rejalashtira va bashorat qila turib, ongsiz ravishda o'zini maqsadga erishish yo'lida kutib to'rgan tahminiy energetik sarflariga umid qiladi. Maqsadiga erishish jarayonida inson ish bajarish uchun zarur bo'lgan energiya miqdorini chiqarishga kodir bulmay kolsa, u holda unda charchok holati paydo bo'ladi va kushimcha ravishda zarur energiya ishlab chiqarish uchun ishni to'xtatib turish istagi paydo bo'ladi. Agar kishining rejalari va bashoratlari xato bo'lib chiksa va u talab kilinganidan ko'prok energiya

sarflagan bulsa, unda xayajonlanish holati paydo bo'ladi. Kishi o'zini deyarli har narsaga kodir deb xis qiladi. Buni odamda kutilmaganda shunchalik ko'p pul paydo bo'lgan va u bu pullarni kaerga sarflashni bilmayotganligi holati bilan tenglashtirish mumkin. SHuning uchun, ko'pgina individlar iloji boricha ko'prok shunday holatga tushishga harakat qiladilar.

### **O'smirlarda alkogolizm, taskikomaniya va jinsiy buzilishlar.**

#### **Reja:**

**1.Narkomaniyaning ijtimoiy-psixologik tomonlari.**

**2.Alkogolizm va uning kelib chiqishi.**

**3.Taskikomaniya va jinsiy buzilishlar.**

**Tayanch so'z va iboralar** ; *Alkogolizm, Taskikomaniya, Narkomaniya, sedativ, gallyutsinogen,*

Ruxiy-faol moddalar orasida narkotiklar, zaharli va psixotrop ta'sir kursatuvchi dori vositalari aloxida ajralib turadi. Narkotik deganda, odatda, quyidagi mezonlarga mos keluvchi modda tushuniladi:

- ruxiy jarayonlarga o'ziga xos - sedativ, ragbatlantiruvchi, gallyutsinogen va shu kabilar (tibbiy mezon) ta'sir kursatadi;

- moddani oqibati ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, ulkan kulamlarga yetadigan darajada notibbiy iste'mol qilish (ijtimoiy mezon);

Narkotiklar guruxiga kiritilmagan ruxiy faol moddalar odatda zaharli moddalar hisoblanadi. Ularda narkotiklarning barcha psixotrop xossalari mavjud bo'lib, tobelik shakllanishi- ning umumiy qonuniyatlariga egadirlar. Buning ustiga, tobelik shakllanishi natijasidagi buzilishlar xatto uta og'ir ham bo'lishi mumkin. Biroq ularni suiiste'mol qilishning ijtimoiy xavfi hozircha uncha katta emas. Ruxiy faol vositalarga alkogol, kuknori maxsulotlari, kannabis, sedativ va uxlatuvchi moddalar, kokain, kofein, gallyutsinogenlar, tamaki, uchuvchan erituvchi moddalardan iborat kuchaytiruvchi moddalar kiradi.

Giyoxvandlik - narkotiklar ro'yxatiga kiritilgan moddalarni muntazam ravishda iste'mol qilish oqibatida yuzaga kelgan kasallik (tobelik). Zaharvandlik (toksikomaniya) - narkotiklar- ning rasmiy ro'yxatiga kiritilmagan moddaga, ba'zan ruxiy, ba'zan esa jismoniy bog'liqlikda namoyon bo'ladigan tobelik. Ularga bog'liq bulmagan holda narkotiklar yoki ruxiy-faol zahar- li moddalarni suiiste'mol qilish giyoxvandlik yoki toksikomaniya deb hisoblanmaydi. Bunday axloqni narkotizm yoki toksiko- maniy axloq, epizodik suiiste'mol qilish va boshqalar deb atash taqlif etiladi. Psihologlar bu holda "addiktiv axloq" (inglizcha addiction) - xaloqatli odat, nuqsonli moyillik atamasini kullaydilar.

**Addiktiv axlots** - deviant (og'uvchi) axloqning ba'zi moddalarni qabul qilish yoki e'tiborini doimiy ravishda shiddatli xissiyotlarini rivojlantirish va kullab turishga yunaltirilgan faoliyatning ma'lum bir turiga karatish vositasida uz ruxiy

holatini o'zgartirish yo'li bilan voqelikdan qochishga intilish xosil bo'lishi shakllaridan biridir. Bu jarayon kishini shunchalik kamrab oladiki, xatto uning hayotini boshqara boshlaydi. Kishi uz ishtiyoki oldida nochor bo'lib koladi. Iroda kuchi zaiflashadi va addiktsiyaga qarshilik ko'rsatishga imkon bermaydi.

Addiktsiyaning yemiruvchi xususiyati shunda namoyon bo'ladi, bu jarayonda xis-xayajonli munosabatlar boshqa odamlar bilan emas, balki jonsiz predmetlar bilan urnatiladi. Insonlar bilan xissiy munosabat uz ahamiyatini yo'qotadi, yuzaki bo'lib koladi. Addiktiv ravishda amalga oshirish usuli vositadan asta-sekin maqsadga aylanadi. Mushkul hollarda vaqti-vaqti bilan shubxa va tashvishlardan chalgish hamma uchun ham zarur, lekin addiktiv axloq holatida u hayot uslubi bo'lib kolib, uning jarayonida inson doimiy ravishda real borliqdan kochuvchi kopkonga tushib koladi. Addiktsiya shakllari bir-biri bilan almashib turishi mumkin, bu esa muammo xal bo'lishi haqidagi xom hayollarni yanada mustaxkamrok va kuchlirok qilib qo'yadi. Bu esa nafaqat addiktning uzi balki uning atrofida qilish uchun ham xavflidir. Addiktiv ravishda amalga oshirish dustlik, sevgi, faollik boshqa ko'rinishlarining urnini bosadi. U vaqtni, kuch, energiya va xissiyotni shu darajada yutib ketadiki, addikt hayotda muvozanatni saqlash, faollikning boshqa turlariga kirishish, odamlar bilan muloqotdan lazzat olish, qiziqish, relaksatsiyalanish, shaxsning boshqa tomonlarini rivojlantirish, uz maylini namoyon qilish, xatto eng yaqin kishilarini xissiy jihatdan kullab-kuvvatlashga layoqatsiz bo'lib koladi.

SHaxsiyatlararo munosabatlar addikt uchun goyat kutilmagan bo'lib, ular katta harakatlar, ko'pgina xissiy sarflar, fikrlash faoliyati g'ayratni va o'zini ayamalikni talab etadi. Jonsiz moddalar, predmetlar va faoliyat turlari bilan o'zaro munosabatda bulishni esa doimo oldindan bilib bo'ladi, qulaylikka etishish samarasi esa deyarli doim kafolatlangan bo'ladi. Jonsiz predmetlarni manipulyatsiya qilish esa oson, shuning uchun vaziyatni nazorat qilish layoqatiga ishonch ortadi. SHunisi kurkinchlik, addiktlarda manipulyatsiyali uslub shaxslararo muloqotlar doirasiga utadi. SHunday qilib, addiktiv shaxsning olam bilan o'zaro munosabatida o'ziga xos kayta moslashuv sodir bo'ladi: addiktiv vakillar bilan predmetli munosabatlar "jonlanadi" va shaxslararo munosabatlar "predmetlanadi".

Ruxiy sotsial dezadaptatsiya shaxs rivojlanishining jinsiy, yoshga oid va o'ziga xos ruxiy xususiyatlari bilan bog'liq. Axloqning bu holatda namoyon bo'ladigan nostandartligi sub'ektda axloq sabablarini tanlashning jiddiy chegaralanishiga olib keluvchi rivojlanishdan orqada qolish, shaxsiy qoloqlik, past refleksivlik va xokazolar sababli sub'ektda mavjud ijtimoiy va huquqiy me'yorlar interiorizatsiyasining yetishmovchiligi tufayli sodir bo'ladi.

Bu holda, organizm extiyojlari kishi tomonidan ixtiyoriy boshqaruvni yo'qotadi, shaxsda ularni ongli maqsadda ifodalash imkoniyati mavjud bulmaydi. SHuning uchun, shaxsning extiyojlarini boshqarib bo'lmaydigan bo'lib koladi va

qiziqishlar harakterini egallaydi. Agar bu holda individ birdaniga bir nechta maylni xis etsa, ulardan eng kuchlisi g'olib bo'ladi.

O'z tabiati va harakteriga ko'ra ruxiy ijtimoiy deza- daptatsiyaning turli shakllari **barqaror** va **muvaqqat beqaror** shakllarga bo'linadi. Harakterning psixopatiyasi yoki aktsentua- tsiyasi ko'rinishidagi barqaror shakllar genetik, ona kornidagi yoki shikastlovchi jaroxatlar (entsefalit, boshning shikastla- nishi) natijasida, shuningdek noto'g'ri tarbiya berish natijasida vujudga keladi. SHaxsiyatning buzilishi bu holda mayllar, istaqlarning giperbolizatsiyasida, shuningdek shaxsning o'z oldiga imkoniyatlariga mutanosib bo'lgan maqsadlarni quyishi va ularga erishishiga to'sqinlik qiluvchi harakter chizgilarida ifodalanadi. SHunday qilib, birinchi navbatda xis-xayajonli, irodali, kommunikativ yoki qo'zg'atuvchi muhit buziladi, bu esa shaxsning atrof-muhitga moslashuviga halaqit beradi.

**Psixopatiya** - ruxiyatning me'yordan chetga chiqishi bo'lib, unda shaxsning mutanosib ravishda rivojlanish, sub'ektiv xissiy tajriba va muvozanatdagi xis-xayajonli xulqini namoyon qilish layoqati kamayadi.

**Harakter aktsentuatsiyasi** - me'yorning eng keskin varianti bo'lib, unda harakterning aloxida xislatlari ustunlik qiladi.

Ruxiy-ijtimoiy dezadaptatsiyaning muvakkat beqaror shaklla- riga, avvalambor, o'smirlik yoshidagi rivojlanishning tanglik davrlari va tangligining ruxiy-fiziologik xususiyatlarini kiritish mumkin. Ma'lumki, shaxs o'smirlik yoshida suyak-mushak va yurak-tomir tizimi jadallashgan va notekis rivojlanayotgan, jinsiy yetilish bilan birga sodir bo'ladigan "endokrin buron" bilan tavsiflanuvchi global ruxiy-fiziologik va ruxiy- ijtimoiy yoshga bog'liq tanglikni boshdan kechiradi. X,ayotining bu davrida o'smir jinsiy masalalarga kuchli qiziqishini namoyon qiladi, tengdoshlari bilan muloqot qilishga va uz shaxsiyatining ahamiyatini ko'rsatishga intiladi. Unda o'zini uzi baholash va o'zini anglash faol shakllanadi, u kattalardan ajralib turishga harakat qiladi, ular bilan ziddiyatga boradi. Buning oqibatida ham atrofdagilar uchun, ham o'smirning o'zi uchun uta qiyin bo'lgan o'smirlik dezadaptatsiyasining vaqtinchalik ko'rinishlariga olib keladi.

Ruxiy-ijtimoiy dezadaptatsiyaning muvaqqat shakllari, shuningdek maktabdagi, uydagi, tengdoshlar bilan yuz bergan ziddiyatli vaziyatlar, ilk muxabbat tashvishlari va xokazolar oqibatida vujudga kelishi mumkin. Atrofdagilarning shakllan- gan talablariga yoki shakllangan shaxsiy idealga mos kelish imkoniyati yo'qligi affektiv asabiy tashvishlarga va xatto yosh uchun xos bo'lgan ruxiy-somatik parokandalikka, masalan, anoreksiya yoki bulimiyaga olib kelishi mumkin.

## **6.2.Narkomaniyaning ijtimoiy-psixologik sabablari. Narkomaniyada shaxs deqratsiyasi.**

Narkotiklar yetishtirishning cheklanganligi va yoqimsiz xislar tufayli qabul

kilinmasligiga olib keluvchi tabiiy biologik himoya mexanizmlarining ta'siri boshqa to'xtatib turuvchi omillar hisoblangan. Keyinchalik kimyoviy yo'l bilan narkotik moddalar olish mumkinligi, ularning sanoatda ishlab chiqarilishi va sotishdan olinadigan misli ko'rilmagan foyda narkotiklar iste'mol qilishning nazoratga olib bo'lmaydigan darajada o'sishi va narkotik qaramlikning keng ko'lamda shakllanishiga olib keldi.

Xozirgi vaqtda giyoxvandlik shakllanishining sabablari to'g'risida ko'plab nazariyalar (fikrlar) mavjud. Ulardan eng ko'p tarqalganlarini ko'rib chiqamiz.

1. **Degenerativ nazariyalar.** Ularda giyoxvandlik asosan "ayniyotgan" shaxslarga xos bo'lgan nuqson shaklida kuruladi. Narkotiklarga eng ko'p o'rganish psixopatik, infantil yoki ipoxondrik-melanholik, ba'zan vegetativ-og'riqli kompleksli (migrenъ) shaxslarda uchraydi. SHuningdek miyaning organik kasalliklarini boshidan o'tkazgan, oligofreniya, tutqanoq bilan kasallanganlar unga tezda o'rganadi. Jinoyat olamida Giyoxvand- larning ancha miqdori tubanlashgan elementlar va foxishalar orasida, ya'ni biz delinkventlar deb belgilagan shaxslar orasida kuzatiladi. Narkotiklar juda kimmat turadi, shuning uchun ularni iste'mol qilishga ruju kuyganlar ularni topish uchun har qanday usullarni izlashga majbur bo'ladilar. Bir qator mualliflar giyoxvandlikka moyillik nasldan naslga utadi deb kursatadilar.

2. **Biologik nazariyalar.** Bolaning u yoki boshqa sabablar ta'siri ostida rivojlanish jarayonida ma'lum miya xosilalari, birinchi navbatda - kishining xissiyotiga javob beruvchi limbik tizimi shikastlanadi degan tahminlar mavjud. Bu shikastla- nishlar juda nozik bo'lib, chamasi, neyronlar (bosh miyasi xujayralari) o'rtasida muloqot va aloqalar o'rnatish darajasida, shuningdek neyronlarning o'z tuzilishlari darajasida sodir bo'ladi. Bosh miyaning to'g'ri rivojlanishi turli sabablar ta'si- rida: mexanik shikastlanishlar (miya chayqalishlari), yukumli kasalliklar, ayniksa virusli, turli-tuman zaharlanishlar, shu jumladan ozik-ovkatdan og'ir zaharlanishlar natijasida, shuningdek ruxiy zarbalar natijasida buzilishi mumkin. Xdyvonlarda utkazilgan tajribalarda aniqlanishicha, bolalar ota-onasidan ajratib kuyilgan hollarda ular endorfinli retseptorlar faolligi ortadi, bu esa xavotirlik tuyg'usi va notinch axloq yuzaga kelishiga olib keladi. SHubxasiz, inson bolalarida ham xuddi shu holat sodir bo'ladi. Opiy ta'siriga beriluvchan retseptorlarning yuqori faolligi narkotik yoki alkogolning ortiq miqdori bilan muvozanatlashadi, bu esa suiiste'molchilik sababi bo'lib xizmat qiladi.

3. **Psixodinamik nazariyalar.** Geroi ta'siriga qaramlik va tegishli hayot tarzini kechirish mazkur nazariyalarda shaxsning «Men»ining sekinlashgan rivojlanishga moslashuvi deb ko'rib chiqiladi. Ruxiyat buzilishlarining xos shakllanishi uchun keskin davr separatsiya-individuallashish bosqichining rivojlanishi hisoblanadi.

"Men" - voqelik tamoyillariga muvofiq ravishda ongsiz intilishlar va uning istaqlarini boshqargan holda hayot talablariga moslashish imkonini beruvchi ruxiy tuzilishdir. U butun hayot davomida uzluksiz ravishda, lekin bolalikda - tezroq,

chaqaloqlikdan boshlab rivojlanib boradi.

Separatsiya - shaxs rivojlanishining boshlang'ich davri bo'lib, unda shaxsning o'zini tashqi dunyodan ajratib olishi sodir bo'ladi va atrofdagi ob'ektlar bilan faol o'zaro munosabatlar jarayoni boshlanadi.

Narkotiklar iste'mol qilishdan kiynalish ushbu ichki nizoni xal etish hisoblanadi. Bunday holda, giyoxvand xuddi narkotikka karam bo'lib kolgani kabi, unga hamrox bo'lgan azoblanishga ham karam bo'lib koladi. Giyoxvand narkotik iste'mol qilishdan oldin ham, iste'mol kilganidan keyin ham - odamlardan unga bevosita yordam berishlarini surashga layoqatsiz bo'ladi. U o'zini rad etilishi qo'rquvidan himoya qiluvchi manipulyativ axloq vositasida vaziyatni nazorat qiladi. Bunday axloqning maqsadi istakni zudlik bilan qondirish hisoblanadi. Giyoxvandlar kelajakka ishonmaydilar, ular uchun boshqalarga nisbatan ishonchsizlik, shuningdek o'ziga bo'lgan ishonchning umuman mavjud emasligi xosdir. Umume'tirof etlgan fikrlarga ko'ra, giyoxvandlar hayot kuvonchlarini qabul kilmaydilar, ular muvaffaqiyatdan kurkadilar, ularning axloqi destruktiv xulq-atvorda - asossiz tajovuzkorlik yoki suitsidal harakatlarda namoyon bo'ladi. Aslida esa ularning muvaffaqiyatdan qo'rqishi bu muvaffaqiyat uzokka chuzilmasligi, qachondir tugashi va ular yana xuddi bolaligida- gidek chidab bulmaydigan og'riq, ko'ngil kolishi va boshqa salbiy xissiyotlarni tuyishlari mumkinligi to'g'risidagi qo'rquvga asoslangan bo'ladi. SHu bois, bu qo'rquvni yengish uchun giyoxvand ongsiz ravishda uz muvaffaqiyatini buzishga intiladi. Demak, giyoxvandni yana boladek tobeklikda bo'lishiga va majburiyatga ega bulmaslikka o'rinayotgan shaxs sifatida kurib chiqish mumkin. Ilk extiyojlarini darhol qondirish bilan tavsiflanuvchi bunday inkirozlar - ota-onadan ajralish jarayonida ishonch va xavfsizlik muhiti mavjud bo'lmagan tashvishli erta bolalikning natijasi hisoblanadi. SHunday qilib, narkotiklarga qaramlikni qattiq xayajonda yuzaga kelgan og'riqni yengillashtirish va bir kancha vaqtga o'zini boshqarish va ishlash layoqatini oshirishga yunaltirilgan adaptiv axloq sifatida kurib chiqish mumkin.

## **7- Mavzu. SHaxs og'ishgan axloqining psixodiagnostik**

### **7.1. Xulqi og'ishgan bolalar bilan olib boriladigan psixodiagnostik ishlarining o'ziga xos jixatlari va tamoillari.**

#### **Reja:**

- 1.Psixologik korrektsiya va diagnostika.
- 2.Ijtimoiy-Korreksion psixologiya.
- 3.Pedagogik korrektsiya va diagnostika

**Tayanch so'z va iboralar:** *Psixologik korrektsiya ,Ijtimoiy-Korreksiya, Pedagogik korrektsiya.*

O'smirning deviant axloqini diagnostika qilish uchun psixologlar tomonidan «qarshi harakat» deb nomlanuvchi mezonlar ishlab chikilgan. Bunday holda, ular ijtimoiy, o'quv yoki shaxslararo sohadagi buzilishlar bilan bog'liq eksternal devia-

tsiyani (nafrat, dushmanlik, tajovuz, o'g'rilik, yolg'on) o'z ichiga oladi.

O'smirdagi deviant axloqning muomala belgilari (DSM - IY bo'yicha)

- xis- xayajonli portlashlar;
- kattalar bilan janjallar;
- kattalarning qoidalari yoki iltimoslarini mensimaslik yoki bajarishni rad etish;
- boshqa odamlarni jurttaga bezor qilish;
- o'z xatolarida boshqa birovlarini ayblash;
- jizzakilikning eng keskin darajasi;
- badjaxllik, darg'azablik, kasoskorlik, kek saqlash;
- xaqoratlar va uyatsiz so'zlarni tez-tez ishlatish.

**Psixologik korrektsiya va diagnostika** - pedagogik jarayonini takomillashtirish uchun xizmat kilishdir (ukuv jarayonining tashkiliy metodik tomonlaridan tashkari). Ukuvchilarning ogzaki va yozma javoblarini, javoblardagi tipik xatolarni, ularning sabablarini, ukuv faoliyatidagi salbiy uzgarishlarni, ukuvchilarda ukuv, mexnat malaka va kunikmalarining rivojlanganlik darajasini, ta'lim olishga nisbatan moyilliklari korrektsiya va diagnostika kilinadi.

sotsiologiyasi, dam olish sotsiologiyasi, iktisodiy sotsiologiya kabi soxalarda kulaniladigan metodikalar va kursatkichlardan foydalanishni takozo kiladi.

ukuvchilarga ommaviy kommunikatsiya vositalarining (radio, televidenie, gazetalar va xokazo) ta'sirini, ukuvchilarning burch va xukuklari, ular orasidagi munosabatlarni urganishga yunaltirilgandir.

**Ijtimoiy korrektsion psixologiya va psixodiagnostika**- sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogikani uz ichiga kamrab olgan bulib, ukuvchilar, pedagoglar, ota-onalar guruxlarini, ukuvchilarga ommaviy kommunikatsiya vositalarining (radio, televidenie, gazetalar va xokazo) ta'sirini, ukuvchilarning burch va xukuklari, ular orasidagi munosabatlarni urganishga yunaltirilgandir.

**Pedagogik korrektsiya va diagnostika** - Korrektsion psixologiyaning eng yaxshi rivojlangan va muxim yunalishlaridan biri bulib, unga ukuvchilarning akliy rivojlanish darajasini aniklash, uz-uzini baxolashi, psixologik "ximoya usullari"ni, ukuvchi uzining psixik xolatlarini, ularning xarakterining asosiy sifatlarini va boshka individual-psixologik xususiyatlarini urganishga karatilgandir.

**Korrektsion psixologiyaning asosiy tamoyillari.** Albatta, xar kanday fan soxasi uziga xos ob'ektga va predmetga va ularga mos keladigan tadkikot yoki amaliy urganish metodlariga, uz tamoyillariga egadir. Psixologik korrektsiyada kulaniladigan metodlar va tamoyillar xozirgi zamon psixologiya fani va pedagogika fanida orttirilgan ilmiy, amaliy tajribalar, shakllangan tamoyillar asosida shakllanmokda.. Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda, Korrektsion psixologiyaning quyidagi tamoyillarini ko'rsatib o'tish mumkin:

**Tekshiruv metodini aniqlash.** Diagnostika qiluvchi xususiyat aniqlangandan so'ng, shunday faoliyat turlarini tanlash lozimki, bular tekshirilayotgan xususiyat haqida ma'lumotlar berish imkonini bersin.

**Metodni taxlil qilish.** Diagnostik metodlarni adekvat ishlab chiqish uchun eksperiment o'tkazish sharoitlarini va uning natijalari taxlilini maksimal darajada standartlashtirish lozim bo'ladi. Eksperiment shartlarini standartlashtirishga quyidagilar kiradi:

Eksperimentni o'tkazish, asosan instruktsiya, masalan, testlashtirish jarayonini tasviri.

Ma'lumotlarni qayd qilish, ya'ni eksperiment davomida eksperimentning borishi va natijalarini protokollashtirish va qayd qilish. Ma'lumotlarni tahlil qilish, masalan, verbal ma'lumotlarni klassifikatsiyalash yoki o'lchov natijalarini solishtirish. Ma'lumotlarni sintez qilish, ma'lumki qayd qilingan dastlabki ma'lumotlarda faqat noaniq psixodiagnostik axborotlarni olish mumkin. Psixometrik jarayonlar yordamida ularni birlashtirish, guruhlashtirish, lozimki ular yordamida psixodiagnostik nuqtai nazarga ko'ra ularni interpretatsiya qilish mumkin bo'lsin.

**Ma'lumotlarni interpretatsiyasi.** Metod asosida yotuvchi nazariy kontsepsiya asosida psixodiagnostik ma'lumotlarni taxlil qilish yotadi.

**Metodning sifatlik kriteriylarini aniqlash.** Diagnostik ma'lumotlarning ishonchliligi va sifati ma'lum darajada tekshiruv metodi sifatiga bog'liq buladi. Ular mos keluvchi texnik tekshiruv yordamida avvalo korreksion statik metodlar yordamida aniqlanadi. Metodlarning bir muncha asosiy kriteriylari quyidagilar xisoblanadi.

## **7.2. O'smir va o'spirinlar xulqidagi og'ishlarning psixologik tashxis qilishni o'ziga xos jixatlari**

Tadqiqotlarga ko'ra, bunday tajovuzkorlik, gipperfaollik va ota-onalari bilan o'zaro munosabatlarda qiyinchilik alomatlari yakkol ko'rinib to'rgan bolalar kattarok yoshga yetganlarida hayotda bunday muammolari bulmagan bolalarga nisbatan besh marta ko'prok jinoyatchi yoki ichkilikboz bo'lib yetishganlar.

SHaxsni ijtimoiylashtirish umumiy jarayonining bir qismi uni huquqiy ijtimoiylashtirish bo'lib, uning moxiyati shaxs tomonidan huquqiy qadriyatlarining uzlashtirilishi, ularni uz hayoti va axloqining me'yorlariga, shaxsiy sifatlariga aylan- tirishidan iborat.

O'z huquqini tanish - yuridik ahamiyatga ega bo'lgan vaziyatlarda inson axloqini tartibga soluvchi yuridik bilimlar, huquq va uni qo'llash amaliyotiga bo'lgan baholovchi munosabatlar, huquqiy yo'l-yuriklar va kimmatli yunalishlar shaklidagi huquqiy borliqni aks ettiruvchi jamiyat, gurux va individual ong doirasidir.

Huquqiy axloqning har qanday harakatida albatta, unda ishtirok etayotgan shaxsning huquqiy ongi namoyon bo'ladi. Buning aniq bir huquq me'yorini bilishi

yoki bilmasligi, davlat xokimiyati, qonun, huquqni muxofaza qiluvchi organlar nufuzi- ning turli darajasi, amaldagi huquqiy takiklar va ularni buzganlik uchun huquqiy sanksiyalarning mavjudligi va unga nisbatan shaxsning salbiy munosabati bilan tavsiflanishi mumkin.

Og'uvchi axloqka ega bo'lgan kishilarning katta kismi umumin- soniy qadriyatlar va axloq me'yorlari haqida tasavvurlarni eslab koladi, lekin bir qator sabablarga ko'ra uz xulqidagi bu me'yorlarga tayana olmaydi yoki turli motivatsiyalangan himoya mexanizmlari bilan o'zining jamoatchilikka zid og'ishlarini oklashga harakat qiladi. Ruxiy himoya mexanizmlari - sub'ekt uchun og'riqli, chidab bulmaydigan tashvishlarga qarshi himoya usuli bo'lib, uning borliqni, «Men» (obraz)ini yoki tashqi dunyoni buzib ko'rsatish kabilarning natijasidir.

SHunday qilib, og'uvchi axloq o'zini namoyon qilishning keng shakllariga ega. Deviant axloq namoyon bo'lishi xususiyatlarining differentsiatsiyasini utkazish uchun zamonaviy psihologiyaning kuyidagi qoidalariga tayanish zarur.

4. Garchi psixopatologik buzilishlar mavjud bo'lgan barcha sub'ektlarning axloqi deviant deb hisoblansada, deviant axloqning har qanday turi orqasida ham psixopatologiya yashirinib yotavermaydi.

5. Ruxiyat buzilishlari, ya'ni kognitiv, xis-xayajonli va boshqaruvchi jarayon, jarayonlar borishidagi buzilishlar albatta, shaxsning nuqsonini belgilab bermaydi.

6. Buzilishlarning bir qancha ko'rinishlari shakllanishida organiq omillarning roli dezadaptiv ta'sirlanishlarga o'rganish imkoniyatini inkor etmaydi.

Bu holda, dezadaptatsiyaning turli shakllarini kurib chiki- layotgan holatning darajasi uz harakterlovchi belgilari bo'yicha yaqin bo'lgan ma'lum guruxlar ko'rinishida tasavvur etamiz.

Birinchi guruxni shaxsning delinkvent axloqi (lot. delinquens - jinoiy xulq, qilmish) vakillari guruxi tashqil etadi. Unga yukorida qayd etib utilgan toifadagi jinoyatchilar, shuningdek foxishalar va ma'lum yashash joyiga ega bulmagan daydilar ham kiradi.

**Delinkvent axlots** - ushbu jamiyatda va ayni vaqtda urna- tilgan huquqiy me'yorlardan og'ishgan, jamoatchilik tartibiga xavf soluvchi muayyan shaxs harakati<sup>3</sup>.

**Delinkvent shaxs** - keskin og'uvchi axloqka ega bo'lgan jinoiy jazoga mos harakatlarni namoyon qiluvchi sub'ekt.

Ikkinchi guruxga kishining o'zini uzi barbod qiluvchi, ya'ni axloqi va

---

<sup>3</sup> Қаранг: Комилова Н.Ф. хулқи оғишган болалар психологияси. Услубий қўлланма.- Т., 2008.

harakatlari orqali, ruxiyati yoki yaxlit organizmning yanada tezrok yoki sekinrok va tiklab bulmaydigan yemirilishiga olib keluvchi axloqi vakillari kiritilgan. ***Bu - ichkilikbozlar, giyouvandlar, uz joniga tsasd tsiluvchilardir.***

Va nixoyat, uchinchi guruxni kishining me'yoriy bulmagan axloqi vakillari tashqil etgan bo'lib, uning tarkibiga turli ruxiyat buzilishlari bilan kasallangan kishilar kiradi.

## **8-Mavzu. Xulqi og'ishgan bolalarning ota-onalar bilan amaliyotchi psixolgnning faoliyati**

### **8.1.Maktab psixologi tomonidan pedagoglar, ota-onalar, o'quvchilarni psixologik konsultatsiya qilish.**

#### **Reja:**

- 1.Maktab amaliyotchi psixologining konsultatsiyasi.
2. Maktab amaliyotchi psixologining profilaktikasi.
- 3.Maktab amaliyotchi psixologining xulosasi

**Tayanch so'z va iboralar:** *konsultatsiyasi, profilaktikasi, amaliyotchi psixolog,*

Maktab dargoxlarida yosh avlodni Mustaqil Respublikamizning munosib fuqorolari qilib tarbiyalashda muxim boskich ekanligini xisobga olib, keyingi davrlarda ta'lim- tarbiyani milliylashtirish, ma'lum ta'lim-tarbiya sifatini oshirish maqsadida. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan «Konferentsiyalar», uquv, ta'lim-tarbiya dasturi va yangi bir qancha fanlarga sharoitlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim tugrisida» gi konunida shunday deb yoritilgan. Endilikda bizga fakatgina xar tomonlama rivojlangan bola bulibgina kolmasdan, balki xar tomonlama uygun, soglom bolani, rivojlangan bolani tarbiyalashda va unga bilim berish va kamolga etkazishda xar insonning asosiy burchi ekanligi zarurligi uktirib utilgandir.

Oilaviy turmush va oila a'zolarining uzaro muammalalarini tadmik kilgan venger sotsiologi M.Komloshi 10-14 yoshdagi maktab ukvchilarining ukishga va mexnatga bulgan munosabatiga bevosita ta'sir kiluvchi oilaviy muxit (vaziyat, sharoit) omillarini 4 guruxga ajratadi:

1. Ota-onalarning jamoat faoliyati (ularning siyosiy pozitsiyalari, ishga nisbatan munosabatlari).
2. Oila davrasidagi munosabatlar (ota-onalarning ukuvchilarga munosabati, aka-ukalar va opa-singillarning uzaro munosabatlari).
3. Ota-onalarning tarbiyaviy pedagogik faoliyati (ularning pedagogik kizikishlari, maktab Bilan xamkorliklari, ukuvchilarga dars tayyorlash nezida ota-onalarning yordami, ularning tarbiyaviy metodlari).
4. Oilada ukuvchining faoliyati (ukuvchining kun-tartibi, xujalik ishlardagi muayyan majburiyati) va boshkalar.

Tadkikotchi M.Komloshi yikkan materiallarini taxlil kilib oilaviy muxit (vaziyat,sharoit)ni uch kategoriyaga ajratadi: ijobiy, uzgaruvchan va salbiy. Psixolog V.I.Selivanov oilada shaxsni shakllantirish jarayonini urganib, baxtli bolalik – bu oiladagi kuvonchli xam jixatlikning xamda ota-onalarning uz bolalariga gamxurligining spmarasidir degan xulosaga keladi. Agar oilalarning yunalishiga kara buch toifaga mansub ekanligini kursatib beradi: ijtimoiy progressiv tarakkiyparvar yulishdagi oila, past darajadagi ijtimoiy yunalishga mansub oila.

